

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“UMUMIY PEDAGOGIKA” KAFEDRASI

“Talabalarda ma'naviyatni shakllantirish omillari” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Boshlang'ich sinf va sport tarbiyaviy
ish” ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi 4 kurs
talabasi **Akbaeva Lobar**_____

ILMIY RAHBAR:

O'qit.Boyjigitov Sh._____

Maslahatchi:

p.f.n. Bozorova M.Q._____

Bitiruv malakaviy ish kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____sonli bayonnomasi “ _____ ” _____2013 yil

Reja:

Kirish.

I-BOB. O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni shakllantirishning ilmiy-pedagog asosi .

I.1. Ma'naviyat tushunchasi mazmuni.

I.2. Talaba yoshlar ma'naviyatini shakllantirish omillari.

II-BOB. Talaba yoshlarda ma'naviyatni shakllantirishning shakl va usullari.

II.1. Prezidentimizning "yuksak-ma'naviyat engilmas kuch" asari bu yoshlar ma'naviyatini shakllantirishining bosh me'zoni sifatida.

II.2 Yoshlar ma'naviy tarbiyasiga tizimli yondashuv.

Umumiy xulosa va tavsiyalar

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilovalar

KIRISH

Muammoning dolzarbligi. Hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurashning namoyon bo'lishi har qachongidan shiddatli tus olayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda, dunyoning mafkuraviy manzarasining o'zgarib borishi, geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosatning uyg'unlashib borishi, mustaqillikni qo'lga kiritgan mamlakatlarda mafkuraviy tamoyillar ahamiyatini oshib borishi, mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi va shu kabilar.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin hozirgi davrning eng muhim vazifalaridan biri ushbu jarayonlarga mos keladigan, yangicha fikrlovchi avlodni tarbiyalashdan iborat bo'lib qolmoqda.

Milliy merosimiz va qadriyatlarimizning qayta tiklanishi, milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi tufayli odamlar ongida, tafakkurida muhim ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ma'naviy-ma'rifiy jarayonlardagi o'zgarishlar odamlarimiz qalbi va ongiga singib, ularda kelajakka, o'z kuchiga, o'z imkoniyatiga ishonch, Vatanga muhabbat, erkinlik, xissini tarbiyalamoqda. «Eng muhimi, aholining ongu tafakkurida tub o'zgarishlar ro'y berdi, ularning uzoq yillar mobaynida kommunistik va sovet mafkurasi tamoyillari asosida shakllantirilgan fikrlash tarzi va dunyoqarashi, bir so'z bilan aytganda odamlarning o'zi o'zgardi»¹. Faqat istiqlol xalqimizga o'z Vatanida o'zini erkin xis etish, erkin fikrlash, mustaqil tafakkur yuritish imkonini berdi va u keng ko'lamdagi siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi islohotlarni amalga oshirishda asosiy kuch-qudrat bo'lib xizmat qilmoqda. Mustaqillik davrida mamlakatimiz olimlari o'tkazgan va o'tkazayotgan tadqiqotlarni tahlil qilish bu sohadagi ishlar endigina boshlanayotganidan guvohlik beradi.

Binobarin, xalqimiz bosib o'tilgan islohotlar jarayonida iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va boshqa sohalar bo'yicha tegishli ma'naviy saboqlar oldi. Darhaqiqat, faqat ma'naviy erkin va ozod xalq teran va komil tafakkur tufayli har sohada katta yutuqlarga erishishi mumkin.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик тараққиёт йўли. – Т.:Ўзбекистон, 2007. -13-бет.

Islohotlar jarayonida erishilgan muvaffaqiyatlar tafakkur va ma'naviyat ozodligi, erkinlikning tantanasi tufaylidir. Ma'lumki, yuksak ma'naviyatning birinchi sharti bu — erkinlikdir, jamiyat a'zolarining o'zini ozod va erkin his etishidir. Zotan, «fuqaro» tushunchasi bilan «erkinlik» tushunchasi o'zaro hamohang va ma'nodoshdir. Ozod mamlakatning erkin shaxsida esa keng imkoniyatlar darajasida o'z millati mentalitetiga xos ma'naviy yangilanish sodir bo'lishi, mustaqil tafakkur shakllanishi mumkin.

Bugun ulg'ayayotgan yoshlar ertaga mustaqillikning ishonchli tayanchiga, xalqimizning asosiy, iqtisodiy, ishlab chiqarish, ijodiy, intellektual kuchiga aylanadi. Shunday ekan ularning dunyoqarashi, tafakkuri qay darajada ilg'or bo'lishi, hozirgi davrning yuksak talablarini o'ziga mo'ljal qilib olish, shunga intilish salohiyati mamlakatimiz istiqbolini, millatimizning jahon hamjamiyatidagi mavqeyini belgilab beradi. Bugungi voqyelik, atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqyea-hodisalarga yangicha qarash, ularni butun murakkabliklari ila tubdan yangicha idrok etish, yangicha siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy mezonlarda baholashni talab etmoqda. Shu bois yangi jamiyat barpo etish jarayonida insonga va jamiyatga, butun borliqqa munosabatni o'zgartirish, ijtimoiy ongni yangilash alohida muhim ahamiyat kasb etadi. «Chunki tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutulmasa, inson to'la ozod bo'lolmaydi. Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi»².

Milliy ma'naviyatimiz, qadriyatlarimiz, ilm-fan sohasidagi otabobolarimizdan qolgan merosning qayta tiklanishi, xalqimizning milliy o'zligini anglash jarayonining o'sib borishi natijasida xalqimiz tafakkur tarzida muhim ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Xayotimizda sodir bo'layotgan bu o'zgarishlar odamlar qalbi va ongiga singib, ularda kelajakka ishonch tuyg'usini, ozodlik va erkinlik hissini tarbiyalamoqda. Mustaqillik tufayli tobe'lik va qaramlikdan ozod bo'lgan davlatimiz ichki va tashqi siyosatda hiech kimning aralashuvi, tazyiqi va ko'rsatmalarisiz xalq manfaatlarini ko'zlab ish yuritmoqda. Yurtimiz istiqboligina boy madaniy-ma'naviy merosimizdan, buyuk ajdodlarimiz yaratgan ma'naviyat

² Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т., “Ўзбекистон”, 1996, 34-бет

chashmalaridan bahramand bo'lishimiz uchun keng yo'l ochdi. Mustaqillik xalqimizga yurtimizning bebaho yer osti va yer usti boyliklariga chinakamiga egalik qilish, o'z diyorida o'zini erkin his etish, erkin fikrlash, mustaqil tafakkur yuritish imkonini berdi. Milliy mustaqillik tafakkuri mamlakatimizda keng ko'lamli siyosiy-ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda asosiy omil kuch-qudrat bo'lib xizmat qilmoqda.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo'lgan ma'naviyatga bog'liq. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov jamiyat rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlarini aniq belgilab berdi. Bular:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish; insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik³.

Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotinigina emas, balki ma'naviy yuksalishini ham taqozo etadi.

Har qanday mafkura kabi O'zbekiston Respublikasi milliy mafkurasining asosiy goyalaridan biri ham jamiyatda ma'naviy-axloqiy qarashlarning ustuvorligiga erishish sanaladi.

Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi ma'naviy-axloqiy tarbiya asosini ham ilg'or milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g'oyalari tashkil etadi.

Ma'naviyat shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollarini belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omildir. Ma'naviyat (arabcha «ma'naviyat» — ma'nolar majmui) mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui hisoblanadi. Prezidentimiz I.A.Karimov

³ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. – Тошкент, Ўзбекистон, 1992. – Б.65. 1996

ta'kidlab o'tganlaridek, «Albatta «ma'naviyat» tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko'plab ta'riflarini keltirish mumkin»⁴.

Ma'naviyat — insonni boshqa mavjudodlardan ajratib turuvchi muhim omil hisoblanadi. Inson tabiatning, barcha mavjudotning gultoji deyilganda uning ushbu hislati, ya'ni yuksak ma'naviyat egasi bo'la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Faqatgina moddiy jihatdan kifoyalanish ongsiz va ruhsiz mahluqotlarga hos bo'lgan xususiyatdir. «Inson uni Inson darajasiga ko'taradigan asoslarning asosini o'z aqli bilan tom ma'noda qamray olmaydi. Inson o'zini xalqning bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o'ylab mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi»⁵. Shu bois insonning erkinlikka, adolatga, kamolotga intilishi, ijod qilishi ma'naviy ehtiyojlari tufaylidir. Inson o'z tabiatiga noloyiq holda emas, balki unga munosib ravishda yashamog'i lozim. Shu ma'noda ma'naviyat o'z-o'zini yaratish faoliyatining mazmunidir. Ma'naviyat ijtimoiy hodisa sifatida birgina shaxs ongiga bog'liq bo'lmasdan, uning o'zgarishi, rivoji umummilliy tajriba orqali amalga oshadi. Ma'naviyat juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, uni bir jumlada ifodalash nihoyatda mushkul. Ma'naviyat — odamning ruhiy va aqliy olamining majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir. U insonning botiniy tomoniga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Ma'naviyatning mohiyati, amaliy ahamiyati, ayniqsa, jamiyat hayotida tub islohotlar amalga oshirilayotgan davrlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Davlatning kuchi va qudratini ma'naviy jihatdan barkamol bo'lgan kishilargina belgilaydi. Ma'naviyatga e'tibor berilmagan mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy bo'hronlar sodir bo'ladi. Mamlakat behisob tabiiy boyliklarga ega bo'lsada lekin xalqi ma'naviy jihatdan qashshoq, qoloq bo'lsa, u davlat hych qachon buyuk bo'la olmaydi. Shu bois inson hamisha necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan ma'naviyat chashmasini izlaydi.

Bu o'rinda ma'naviyat tushunchasining ta'rifi, uning tarkibiy qismlari hamdajamiyat hayotidagi beqiyos ahamiyati to'g'risida to'xtalib o'tishimiz lozim. Chunki yaqin-yaqingacha ilmiy adabiyotlarda madaniyat, jumladan ma'naviy madaniyat haqida gapirilar edi-yu, ma'naviyat haqida hych nima deyilmasdi.

⁴ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б.18.

⁵ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисодиёт, сиёсат, мафкура. 1-жилд. Т.: Ўзбекистон, 1996.81-бет

Ma'naviyat tushunchasi mohiyati va mazmuni jihatidan murakkab va serqirralidir. Ma'naviyat inson qalbidagi ilohiy bir nur sanaladiki, bu ilohiy nur hyech bir jonzotda yo‘q. Ma'naviyat shunday bir sehrlil tilsimki, uni tugal yechishga bashar qudrati yetmaydi. Shu bois ushbu ilmiy ishda berilgan ta'rif mukammallik va tugallikni da'vo qilmaydi. Bu sohada tadqiqot olib borgan olimlardan biri ma'naviyat — tarixiy ong desa, ikkinchisi uni kishilarning ruhiy faoliyati deydi. Uchinchisi ma'naviyat axloq, nafosat va nazariy qadriyatlar majmui desa, to‘rtinchisi uni haqiqat, hikmat va go‘zalliklar qiyomi deydi. H.Po‘latov insonning ma'naviy mohiyatini belgilovchi omillarning, fazilatlarining o‘lchovini fan hozirgacha topgani yo‘q deb ta'kidlash bilan birga, «ma'naviyat» tushunchasiga dastlabki ta'rifni ham beradi. Uning e'tiroficha «...ma'naviyat jamiyatda insoniylikni ro‘yobga chiqarish usulidir»⁶. E.Yusupov esa «Ma'naviyat — inson axloqi va odobi, bilimlari, iste'dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarning bir-biri bilan uzviy bog‘langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimidir»⁷ - deb ta'riflaydi.

A.Jalolov «Mustaqillik mas'uliyati» nomli asarida «Ma'naviyat insonning zot belgisi, uning faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi, ongi, aql-zakovatining maxsuli»⁸, -deb ta'riflasa, «hayot falsafasi va falsafa hayoti» maqolasida bu ta'rifni yanada kengaytirib, mukammalroq tarzda quyidagicha ta'riflaydi: «Ma'naviyat-inson faoliyatining ruhiy mazmuni bo‘lib, kishilar uning vositasida o‘zlarini anglaydilar, jamiyatni, tabiatni ularning mavjudligi hamda taraqqiyot xususiyatlarini o‘rganadilar, qonunlarini kashf etadilar va ularga tayanib, o‘z turmush sharoitlari, amaliy faoliyati muammolarini hal etadilar»⁹. Muallif o‘z fikrini davom ettirib, ma'naviyatsiz hayotni qorong‘i bir xonaga o‘xshatadi. N.Ibrohimov esa «Vatan tuyg‘usi» kitobida «Ma'naviyat - jamiyatning, millatning va ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha»¹⁰ - deb ta'riflaydi. S.Otamurotov va S.Xusanovlar o‘z tadqiqotlarida «Ma'naviyat — har bir insonning ichki ruhiyati,

⁶ Пулатов Х. Муствақиллигимиз қадриятлари – “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1993 йил, 7 май.

⁷ Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Тошкент “Университет” – 1998, 34 бет

⁸ Жалолов А. Муствақиллик масъулияти. Т. “Ўзбекистон”, 1996, 29-бет

⁹ Жалолов А. Хаёғ фалсафаси ва фалсафа хаёғи. Мулоқот. 1997 йил 5-сон, 15-бет.

¹⁰ Иброхимов А. ва бошқалар. Ватан туйғуси. Т. “Ўзбекистон” 1996, 111-бет.

aql-zakovati, uning o‘z-o‘zini anglashi, yahshiliklarga, ezgu niyatlarga to‘la qalbi, oldinga qarab yangi marralar sari ongli ravishda faollik ko‘rsata bilish va intilish salohiyatidir», «Ma'naviyat — insonning ichki ruhiyatini, uning o‘zini-o‘zi anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yahshilik bilan yomonlikni, go‘zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql-zakovatini, yuksak maqsad va g‘oyalarni qo‘ya bilish, ularni amalga oshirish yo‘lida ongli faoliyat ko‘rsatish va intilish salohiyatidir»¹¹ deb ta'riflashadi. Bulardan tashqari bir qator olimlarimizning maqolalarida, anjumanlarda qilgan ma'ruzalarida ma'naviyat - insondagi axloq, odob, bilim, ilm, iymon, ihlos va insoniyat kamoloti uchun ijobiy ta'sir qiluvchi tizim, yoki ma'naviyat-insonning aqliy, axloqiy, ilmiy, amaliy, mafkuraviy qarashlari yig‘indisi sifatida baholanmoqda. Albatta, yuqorida keltirilgan ta'riflarning hammasida ham ma'naviyatning ko‘pgina qirralari o‘z ifodasini topgan. Ularda mualliflar o‘zlarining nuqtai-nazarlarini bildirishgan bo‘lsada, bu ta'riflar yanada sayqalga muxtojdir. Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, ularni to‘ldirgan holda ma'naviyatga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Ma'naviyat — insonning ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aql-zakovatining mahsuli, uning ijtimoiy, ruhiy faoliyatining o‘ziga xos dasturi bo‘lib, u ona Vatanga hurmat, milliy o‘z-o‘zini anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida shakllanadi. Bu jarayonlar millatning o‘z ozodligi uchun kurashida, o‘z manfaatlarini ximoya etishida, taraqqiyotga intilishlarida namoyon bo‘ladi. «Bu jarayonlarni harakatga keltiruvchi asosiy kuch millatning o‘zligini anglashi bo‘lsa, uni uzluksiz ravishda energiya bilan ta'minlab turadigan asosiy manba-milliy ma'naviyatdir»¹².

Ma'naviyat keng qamrovli tushuncha bo‘lib jamiyat va millat ravnaqining bosh omili hisoblanadi. Ma'naviyat tushunchasi tarkibiy tuzilishini tahlil qilar ekan E.Yusupov shunday xulosaga keladi: «Ma'naviyatning mohiyatini belgilovchi to‘rt tarkibiy qismi bor. Bu: a) ahloq va odob; b) shular asosida, amaliy mehnat jarayonida yuzaga kelgan bilim, ilm, amaliy malakalar, iste'dod, qobiliyat; v) axloqiy, ilmiy yetuklikning natijasi bo‘lgan iymon, e'tiqod, vijdon, insof, ixlos;

¹¹ Отамуротов С. Ўзбекистонда маънавий-руҳий тикланиш. Т.: 2003. -178 бет

¹² Отамуротов С. Ўзбекистонда маънавий-руҳий тикланиш. Т.: 2003. -189 бет

g)inson bilimlari, amaliy tajribasini umumlashtirishga, faoliyatiga yoʻnalish berishga qaratilgan dunyoqarash va mafkuradir»¹³. S.Ochil Prezident I. Karimov asarlaridagi fikr va gʻoyalarni tahlil qilib, ma'naviyatning qoʻyidagi tarkibiy qismlarini koʻrsatadi: madaniy- ma'rifiy yuksaklik; ijtimoiy-didaktik taraqqiyot; falsafiy-pedagogik oʻsish; iymon — e'tiqodning butligi; milliy odob — axloq normalariga toʻla rioya qilish; ilm-ma'rifatli boʻlish; insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik; milliy qadriyatlarga muhabbat; fidoiylik, mardlik, jasurlik; Vatan va xalq mustaqilligini doimiy ravishda himoya qilish va unga xizmat etish; ajdodlar va ularni merosiga chuqur hurmat va shu kabilar¹⁴.

Prezident I.A.Karimov oʻzining «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida ma'naviyatga doir fikrlarni inkor etmagan holda, «ma'naviyat» tushunchasi mazmuni faqat «ma'ni», «ma'no» degan soʻzlar doirasida chegaralanib qolmasligini alohida ta'kidlab oʻtadi: «Nega deganda, insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bogʻlangan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan oʻlchab boʻlmaydigan alohida oʻrin tutadi.

Shu fikrni mantiqiy davom ettirib, ma'naviyat-insonni ruhan poklanish, qalban ulgʻayishga chorlaydigan, odamning ikki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uygʻotadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir, desak, meningcha, tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama oʻz tasdigʻini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan boʻlamiz»¹⁵.

Ma'naviyatning negizi va ma'no-mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlardan birinchisi — insonning ruhan poklanishi va qalban ulgʻayishidir. Bu dunyoda halol va pok yashashni oʻzi uchun hayotiy e'tiqod, oliy maqsad deb biladigan odamlar bilan birga, bunday olijanob fazilatlardan butunlay uzoq boʻlib yashaydigan, oʻzini dunyoning haqiqiy egasidek his qiladigan «nafsning quli va oʻtkinchi hoyu havas egalari»ning borligi tabiiy bir holdir. Prezident I.A.Karimov

¹³ Юсуфов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Т., 1998. 34-бет

¹⁴ Сафо Очил. Мустақиллик маънавияти ва тарбия асослари. Т.: Ўқитувчи, 1997.-б.208.

¹⁵ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.-Б.19-20.

o‘zining «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida bu ikki toifadagi odamlarni quyidagicha ta'riflaydi:

«Birinchisi — o‘z nonini halol mehnat bilan topadigan, xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtga naf yetkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, nafaqat bugungi hayot lazzatlari, balki oxirat haqida, uning obod bo‘lishi haqida o‘ylab yashaydigan insonlar. Ikkinchisi — bunga mutlaqo qarama-qarshi bo‘lgan yondashuv, ya'ni hayotning ma'no-mazmuni haqida bosh qotirmasdan, bunday savollar bilan o‘zini qiynamasdan, faqat nafs qayg‘usi va o‘tkinchi hoyu-havasga, huzur-halovatga berilib, yengil-yelpi umr kechiradigan, o‘zining ota-ona va farzand, el-yurt oldidagi burchiga umuman befarq bo‘lib yashaydigan odamlar»¹⁶.

Prezident o‘z fikrini davom ettirib, bu ikki toifadagi odamlarning taqdiri va qismatini soda va tushunarli tarzda quyidagicha izohlab bergan. Ya'ni o‘z peshona teri bilan halol turmush kechiradigan inson hayotidan mamnun va rozi bo‘lib, qalbi va yuragi osoyishta, vijdoni pok, ruhiy olami barqaror bo‘lib, elning hurmatini qozonib yashaydi. Ikkinchi tomondan, bu dunyoda yengil-yelpi, har xil nopok yo‘llarga berilib, insoniy burchini unutib, mol-dunyoga intilib yashagan odam, eng achinarlisi shuki, hayotining so‘ngida armon va nadomatlarga botib o‘z umrini tugatadi¹⁷.

Demak, Ollohning o‘zi buyurgan komil inson bo‘lish, halolik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarining ma'no-mazmunini chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo‘lish, ularga amal qilib yashash — odamzotning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezondir.

Odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qilish ma'naviyatning yana bir muhim xususiyatidir: «Vijdon pokligi va bedorligi asrlar, zamonlar osha inson ma'naviyatning tayanch ustunlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Jamiyat hayotida adolat va haqiqat, mehr-shafqat, insof-u, diyonat kabi tushunchalarni qaror toptirishda aynan mana shu omilning o‘rni va ta'siri beqiyosdir. Vijdoni uyg‘oq odam yon-atrofida bo‘layotgan voqyealarga, yordam va ko‘makka muhtoj insonlarning muammolariga, adolatning toptalishiga befarq

¹⁶ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.-Б.22-23

¹⁷ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.-Б.24-бет.

qaray olmaydi. Ayniqsa, el-yurt manfaatiga zarar yetkazadigan yovuz xatti-harakatlarga hech qachon chetdan jim qarab turolmaydi, o'z yurti va xalqiga nisbatan xiyonat va sotqinlikni aslo qabul qilolmaydi. Bunday holatlarni ko'rganda vijdoni qiynaladi, doimo yonib-kuyib yashaydi, qanday qilib bo'lmasin, ularni bartaraf etishga intiladi, kerak bo'lsa, bu yo'lda hatto jonini ham fido qiladi»¹⁸.

Bugungi kunda tarbiyaga ijtimoiy hodisa sifatida qarashdan maqsad, tarbiya jamiyat manfaatlarini ko'zlab va uning rivojlanganlik darajasiga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra yosh avlodni hayotga tayyorlash, bolalar, yoshlar va kattalarni mavjud sharoitlariga va bu sharoitlarni takomillashtirishga moslashtirishdir¹⁹. Yana shuni alohida ta'kidlash mumkinki, tarbiyaning jamoatchilik (ijtimoiy) tavsifi, bir tomondan, tarbiyaning o'zi tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash sifatida amalga oshirilishi; ikkinchi tomondan, jamiyat tomonidan o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'lum yo'nalishda tarbiyalashga ko'maklashadigan qilib tashkil etilishida o'z ifodasini topadi.

Shunday qilib, tarbiya faqat tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi munosabat sifatida tushunilmasligi lozim. U nafaqat keng ijtimoiy doirada amalga oshiriladi, balki tabiatiga ko'ra amalda barcha ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarni o'zida qamrab oladigan ijtimoiy hodisa sanaladi: tarbiya hayot uchun va uning davomiyligini ta'minlash uchun tashkil etiladi.

— Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, tarbiya jarayoni ijtimoiy omillariga quyidagilar kiradi: mazkur jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sharoitlari;

— tarbiyaning ijtimoiy shartlanganligi;

— tarbiya ijtimoiy boshqarish sifatida (L.F.Spirin), nazorat qilinadigan va boshqariladigan ijtimoiylashtirish;

— tarbiya ijtimoiy ahamiyatli xulq-atvor namunalari odatlantirish sifatida;

¹⁸ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008.-27-28-бетлар.

¹⁹ Селиванов В.С. Основы общей педагогика: теория и методика. М.:Академия, 2002. –С.107.

— kichik (mikro muhit), oʻrta (mezo muhit) va katta (makro muhit) guruh va hamjamiyatlar orqali tarbiyalash.

Bizningcha, ayni shu xislatlar va fazilatlarning yoshlarimiz ongiga singdira borilishi ularni barkamol, sogʻlom va yuksak maʼnaviyatli komil inson ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz oʻz bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini **“Talaba yoshlarda maʼnaviyatni shakllantirish omillari”** deb tanlashni lozim topdik.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi: maʼnaviyat tushunchasi, uning shaxsda shakllanishi jarayonlari haqida sharq mutafakkirlaridan Muxammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Yusuf Hos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy tomonidan yuksak taʼrif va tasniflar berilgan. Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” asarlarida maʼnaviyat, uning shakllanish omillari, barkamol avlod tarbiyasida yuksak maʼnaviyatning qudratli taʼsir kuchi toʻgʻrisida batafsil yoritilganidir.

Shuningdek, pedagoglarimizning zahmatkash olimlaridan M.Haydarov, G.Karimova, O.Musurmonova, B.Qodirov, A.Kenjaboev, M.Bozorova, X.Ibrahimov, S.Nishonovalar, faylasuf-sotsiologlardan Sh.Ergashxoʻjaev, V.Erkaev, A.Oʻlmasov, A.Ibragimov, X.Sultonov, S.Otamurodov, E.Bobomurodov, X.Xudoyberdiev, R.Norlievlar tomonidan maʼnaviyat, maʼnaviy axloqiy tarbiya mazmuni, oila maʼnaviyati, milliy oʻzlikni anglash kabi qator muammolar haqida ilmiy izlanishlar olib borishgan va hozirgi kunda ham tadqiqotlar olib borishmoqda.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi Talaba yoshlarda maʼnaviyatni tarbiyalash omillarini taʼlim muassasalaridagi oʻquv-tarbiya jarayoni orqali mazkur omillarning rivojlantirilishi vositalarini aniqlash va rivojlantirish usullarini shakllarini ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

1. Ta'lim muassasasi talaba yoshlarida "ma'naviyat" muammosini shakllantirish borasidagi mavjud holatni aniqlash;
2. Ma'naviy-ma'rifiy jarayonda faoliyat yuritadigan tarbiyachi o'qituvchi, murabbiylarning talaba ma'naviyatiga bo'lgan munosabatlarini aniqlash.
3. Bitiruv malakaviy ishida ko'zlangan maqsadga erishish uchun talaba yoshlarning ta'lim-tarbiya jarayoniga rejali tadbirlar dasturini olib kirib, natijasini tahlil qilib borish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti – Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilan olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar majmuasi jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviyatli talaba shaxsni shakllantirish jarayonidagi metodlar, vositalar tizimi tashkil etdi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy farazi: - ma'naviyatli talaba yoshlarni shakllantirish va tarbiyalash jarayonida samaradorlikka erishiladi. Agarda,

- Oilada muntazam ma'naviy axloqiy tarbiya shakllantirilsa,
- Ta'lim muassasalarida o'quv tarbiya jarayoni oila bilan hamkorlikda davom ettirilsa,
- Talaba yoshlarni turli xil axborot xurujlaridan saqlashning oila mahalla, maktab hamkorlik ishlari tizimli yo'lga qo'yilsa.
- Ta'lim muassasasi, fakul'tet, kafedralarda talabalarning bo'sh vaqti turli xil mavzudagi ma'naviy – ma'rifiy ishlar bilan band etilsa,
- Talabalarning turli xildagi ijodiy, ilmiy to'garaklarga, tanlovlarga jalb etilsa.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosini Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch asari", barkamol va yetuk avlodni tarbiyalash borasidagi mutafakkirlar ta'limotlari, Davlatimizni yoshlar ma'naviyatini shakllantirish borasidagi qabul qilayotgan qarorlari, ko'rsatmalari, tashkil etdi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi va hajmi: ish kirish, 2 bob, 4 bo'lim, umumiy xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami (77) sahifani tashkil qiladi.

I BOB. O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOG ASOSI .

I.1. Ma'naviyat tushunchasi mazmuni.

Ma'naviyat o'zbek tili va boshqa tillarda ko'p ishlatiladigan, shu bilan birga, eng kam o'rganiladigan tushunchalardan biridir. Boshqa fanlarda bo'lgani kabi, falsafada ham hodisalarni o'rganish, ko'pincha, ularni ifodalaydigan so'zlarning kelib chiqishni aniqlashdan boshlanadi. “Ma'naviyat” so'zining negizida arabcha “ma'ni” so'zi yotadi. “Ma'naviy” so'zi ma'niga aloqadorlikni bildirsa, “Ma'naviyat” – ma'naviy so'zining ko'plikdagi shaklidir.

“Ma'naviyat” atamasining negizida ma'no so'zi yotar ekan, uning mazmunini qisqacha izohlab o'tsak. Ma'naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, ahloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi.²⁰

Ma'lumki, insonning ichki va tashqi olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo'y basti, ko'rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqalar kiradi.

Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma'naviyatdir. Oziq-ovqat insonga quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag'ishlaydi. Ma'naviyat ma'rifat va madaniyat bilan bog'liq.

Ma'naviyat insonlarda tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o'qish, o'rganish tajriba orttirish orqaligina erishiladi.

Ma'naviyat qanchalik boyib borsa jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi.

Ma'naviyatli odam yashashdan maqsad nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli o'tkazish yo'lini izlab topadi, muomala qilish madaniyatini egallaydi, har bir masalaga insof va adolat nuqtai nazaridan yondoshadi.

²⁰ Отамуродов С. Маънавият ва маърифат асослари. Т.: Ўқитувчи, 1991 й. 5-бет

Vijdon nima, yolgʻon va rost nima, or-nomus nima, halol va harom nima – bularning hammasini bir-biridan ajrata oladi, hayotda yomonlikka boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechadi, yaxshilikka boshlovchi amallarni bajaradi. Qisqasi ma'naviyatda inson hayotining mazmuni aks etadi. Vatanni sevish, insonparvarlik, inson ma'naviyatini belgilovchi asosiy omillaridan biridir.

Ma'naviyat kamol topgan jamiyatda, qobiliyat, iste'dod egalari shu jamiyatning millatning yuzi, gʻururi, obroʻ e'tibori hisoblanadi. Ma'naviyatli jamiyatda aql, sogʻlom fikr, adolat va yaxshi hulq ustivordir. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi kuchli boʻladi, odamga nomunosib turli illatlar barham topadi.

Millatning asrlar davomida shakllangan ildizlari, uning tarixiy tajribalari va ijtimoiy madaniy rivojlanishsiz, ma'naviyatini tasavvur qilish qiyin. Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. Ma'naviyatimiz “Avesto” va zardushtiylik ta'limotidan boshlab hozirgi kungacha shakllanib, boyib umuminsoniy qadriyatlar bilan yonma-yon rivojlanib bormoqda. Ma'naviy meroslarimizdan foydalanib shaxs ma'naviyatini shakllantirishda xalqimizning boy madaniy merosidan maqsadli foydalanish talab etmoqda.

Qadimgi davr, ma'naviyati, jumladan, axloq, ma'rifat, ta'lim-tarbiya haqidagi dostonlarda xalqimizning qadimgi urf-odatlarini, ruhiyati, hulq-odoblarining ifodasini uchratishimiz mumkin. Bunday ma'lumotlar qadimgi sugʻd, manixey, xorazm, turkiy yozuvlar namunalarida saqlanib qolgan manbalarda ham uchraydi. Bu davrda Markaziy Osiyo qadimgi Sugʻd, Xorazm, Fargʻona, Ushrushana, Chagʻaniyon kabi oʻlkalardan iborat boʻlib, Gʻarb bilan Sharq mamlakatlarini bogʻlovchi “Ipak yoʻli” markazida joylashgan va madaniy jihatdan ancha rivojlangan mintaqani tashkil etar edi. Bu davr madaniy va ma'naviy yuksalishi haqida gap borar ekan, uygʻonish davri madaniyatiga xos quyidagi oʻzgarishlarni aytib oʻtish joizdir. Markaziy Osiyo xalqlari uzoq tarixga egadir. Markaziy Osiyoning vodiylarida eradan avvalgi VIII-VII-asrlarda boshlangʻich madaniyat markazlari vujudga kelgan. Shu davrlarda eng yirik dinlardan – Zardushtiylik shakllangan. Bu davrda Markaziy Osiyoda keng tarqala boshlagan Zardushtiylik

faqat sof dingina bo‘lib qolmasdan, o‘z davri ma'naviyatining eng muhim yo‘nalishini tashkil qildi, o‘sha davrdagi xalqlarning madaniyati, ma'naviyati, urf-odati, axloqi kabi masalalarni o‘zida aks ettirdi va ularga ta'sir ham ko‘rsatdi.

Movoraunnahr, Xurosonu Eronda yangi mazdaparast (zardushtiy)lik dini joriy qilingach (eramizdan oldingi VI-asr), barcha nihoyalar, shaharu qishloqlarda ibodatxonalar qurila boshlanadi. Ular shoh Gushtasp tomonidan tuzilgan Zardusht nazorati ostidagi me'morlar tomonidan chizilgan maxsus naqshatarx asosida bunyod etilgan. Turli qavmlar, chorvadorlar ammoqlarida qad rostlagan ibodatxonalar “otashgoh”, markaziy shaharlardagisi esa “Otashakada” deb yuritilgan. Uning boshlig‘ini Ozarbon deb atashgan. Ozarbon zardushtiy ulamolar orasidan shoh tomonidan tayinlangan.

Otashkadalar odatda shahar chetidagi mozoriston yoniga balandlikka 4 metrdan 10 metrgacha bo‘lgan o‘lka poydevor ustiga ochiq – keng maydonga qurilgan. Bino tagkursisiga asosan qattiq xarsanglarni to‘rtburchak shaklida kesib, ustma-ust o‘rnatish usulida ishlangan. Toshlarni bir-biriga jiplab yopishtirishda “irdir” nomli qorishmadan foydalanilgan. Har bir otashkada joylashgan manziliga qarab o‘ntadan yuztagacha hujra, xona, tolol (zal), qiroatxona, kitobxona, ohangxonalaridan tashkil topgan. Agar qiroatxonalarda ko‘proq “Avesto”ning “Vendiod” qismi maxsus usul va ohangda o‘qishga o‘rgatilsa, ohangxonada 50-100 kishi jamoa bo‘lib, Ahuramazdoning yagonaligini qo‘shiqlarni ijro etishni o‘rganishgan. Sirdan qaraganda, faqat ibodatxonadek tuyulgan otashkadalar mamlakat ijtimoiy, ma'rifiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Jumladan shahar qozisi, vaqf mulklarining raji idorasi, dorixona, darmongoh, sihatgohlar ham shu yerda joylashgan. Bundan tashqari, nohiya yoki shahar maktab hamda madrasalari ham otashkada qaramog‘ida bo‘lgan. Kutubxonalarda dunyodagi boshqa dinlar, dunyoviy bilimlarga doir kitoblar, “avesto” nusxalari, avesto tilida bitilgan har biri o‘nlab daftardan iborat quyidagi kitoblarning dastxatlari saqlangan:

1. Nikatum nask. 54 fasldan iborat bu kitob rostlik va durustlik, adolat, el haqi, idora yo‘sinlari xususida bahs yuritadi;
2. Kitobi sarnijat: Qozilik nizomi va huquq haqida.

3. Xusporom: dehqonlar va chorvadorlar huquqi bo'yicha bahs yuritiladi.
4. Sakatum nask: shohlar hukumatining tuzilishi bayoni adolat, qozilik, davlat mulki haqida bahs yuritadi;
5. Vendidod: tahorat rasmi, kafanlash va dafn marosimi, tabobat va tabib vazifalari haqida bahs yuritadi;
6. Hoduxn nask: o'limdan keyingi hayot, jannat va do'zax haqidagi kitob
7. Stut Yasht: insonning Tangri nazdidagi va o'tganlar ruhi oldidagi burchi haqida. Keyinchalik bu yetti kitob zardushtiy ulamolar tomonidan pahlaviy tiliga tarjima qilinib bir g'ilofga birlashtirilgan.²¹

Ba'zi tadqiqotchilar bu ma'naviyat maskanlarida Zardushtning madhiyalari alohida kitob sifatida ko'p nusxada ko'chirilib, saqlangan, degan fikrni ham ilgari suradilar. Mazkur yodgorlikdagi ayrim qayd va ishoralar, nom va atamalar zardushtiylikning ilk kurtaklari paydo bo'la boshlagan davrlarda ham hozirgi Movaraunnahr va Xuroson xalqlari yashagan mintaqalarda ta'lim va tarbiya birmuncha rivojlangan bo'lganini ko'rsatadi. Barcha qavm va qabila ahillari orasida "Lagomzadan" (otga suvliq solish), "zin zaddon" otni egarlash odatiga qat'iy amal qilingan. "Avesto"dagi dalillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida kundalik hayot uchun zarur bo'lgan barcha bilimlar o'qitilgan, hunarlar o'rgatilgan. Masalan, chorvachilik bilan shug'ullanadigan qavmlarda ko'proq shu sohaga doir hunar va malakalar o'rgatilgan: qiz bolalarga yungdan ip yigirish, urchiq va charxda ishlay bilish shart bo'lsa, o'g'il bolalar esa mollarni boqish, tuya, otlarni parvarishlab, ularni boshqara olish, uzoq yaylovlarga suruv haydash, chorvani vahshiy hayvonlar, qaroqchilardan muhofaza qilish, o'ttiz ikki harbiy hunarni bilishlari majburiy bo'lgan. Ana shu malakalar hosil bo'lgach, qizlar 15, o'g'il bolalar 17 yoshida "logomzodan" va "zin zaddon" imtihonidan o'tgan.

Natijada ular balog'at yoshiga yetgach, ro'zg'or yuritishni o'rganib uy bekasi, (uy xojasi, oila boshlig'i) bo'lish, cho'pon chulig'ini olib, ot surib, tuya minib yurish huquqini qo'lga kiritishgan. Alohida iqtidorli yigitlar esa, chavandozlikka maxsus tayyorlangan, harbiy mashqlarda ishtirok etgan.

²¹ Авесто Аскар маҳкам таржимаси. Т.: Шарқ НМАКБТ 2001 й.27-бет

Hunarmandchilik, dehqonchiligi bog‘dorchilik bilan shug‘ullanadigan qavmlarda esa, yigitlar “Kamarbastan” rasmidan o‘tishgan. Bunda qavm oqsoqollari har bir yigitni ota kasbidan tashqari harbiy bilimlar, chavandozlik, kurash tushish, har xil to‘siqlarni balandliklarni kechib o‘tish bo‘yicha imtihondan o‘tkazishgan, bu bilan harbiy ta’limga alohida e’tibor berilgan shekilli. Zeroki “Avesto”da 50 dan ziyod harbiy qurollarning, shu jumladan, qal’a devorlarini teshib, buzishda ishlatiladigan, ulkan toshlarni otadigan palahmon, manjaniq, sovut ostidan kiyiladigan misdan to‘qilgan yupqa kamzullar ham tilga olingan. Ayni paytda bu dalillar ajdodlarimiz hunarmandchilikning barcha turlarini rivojlantirishga alohida e’tibor berganliklarini tasdiqlaydi. Zardushtiylik dinida yoshlarning ma’naviy kamolotiga ham alohida e’tibor berilgan. Bu bir tomondan, ularga zardushtiylik dini asoslari, Ahuramazdaning farzlariyu zardusht o‘g‘itlari har jihatdan puxta o‘qitilib, she’riy qoidalar asoslariga suyangan holda “Hot”lar maxsus yodlantirilgan. Ta’lim tizimidagi bu o‘zgarish o‘z navbatida yangi “sidrapo‘shlik” udumini joriy qilishini taqazo etgan. Ahuramazdo tomonidan joriy etilgan farazlar hamda Zardusht o‘g‘itlaridagi sunnatlarni to‘la bajaradigan, har jihatdan pok, yuksak ahloqlik me’yorlarini o‘zida namayon etgan. Ustoz fotihasini olgan dindor oq matodan chakmon, ko‘ylak kiyib ustidan yupqa harir kamar bog‘lab yurishi joriy etiladi. Bu odat yaqin XIII asrgacha davom etgan. Bizningcha, muqanna boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilarning oq libos kiyib yurganligi, ya’ni oq kiyimlilar ekanligini ham ana shu an’ana bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, eramizdan oldingi yettinchi asrning oxiri va oltinchi asrning birinchi choragida yaratilgan yozma yodgorlik “Avesto”da ta’lim-tarbiyaning ayrimjihatlari haqida qiziqarli dalillar mavjud. Xususan, ta’limning amaliy jihatlari, ustozning yosh avlod tarbiyasi, jamiyat oldidagi burchi, ma’suliyati haqidagi mulohazalar hozir ham o‘z qimmatini yo‘qotgan emas. Demak, yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirish birgina bugungi kunning dolzarb muammosi bo‘libgina qolmay, balki Zardushtiylik davrida ham bu muammo davlat ahamiyati darajasiga ko‘tarilganligini bilib olishimiz mumkin.

Markaziy Osiyoda ilk uygʻonish davri haqida soʻz borganda, quyidagi omillarni alohida koʻrsatmoq zarur.

a) IX-XII asrlarda arab xalifaligidan qutulib, yerli mustaqil davlatlarning vujudga kelgani;

b) Yagona din-islom tufayli katta hudud-Yaqin va Oʻrta Sharqdagi turli xalqlar, mamlakatlar oʻrtasidagi aloqalarning rivoj topishi, madaniyat, ma'naviyatda ma'lum umumiylik vujudga kela borgani;

v) Oldingi "Ipak yoʻli" ahamiyatining oshuvi, mamlakatlararo savdo-sotiqning, hunarmandchilikning koʻpaygani shaharlarning rivoji;

g) Jahon madaniyati avval erishgan yutuqlar, xususan, qadimgi yunon, hind, eron madaniyati, ilm-fani yutuqlari inkor etilmay, aksincha vorislik davom qilgani, undan keng foydalanilgani aytib oʻtish joiz.²²

XIII asr boshida Markaziy Osiyo yana oʻz mustaqilligini yoʻqotadi, u moʻgʻillar tomonidan bosib olindi. Shuning uchun ilk Uygʻonish davri deyishimizga sabab, bunday jarayon madaniy yuksalish Markaziy Osiyoda XIV-XV asrlarda moʻgʻil mustamlakachiligidan qutulib, Amir Temur va Temuriylarning mustaqil davlati barpo etilishi bilan bogʻliq holda va yana bir bor yuz berganini koʻramiz.

Temur va Temuriylar davri deyarli bir yarim asr Osiyo, ayniqsa, Markaziy Osiyo tarixida nihoyatda koʻp, serqirra, rang-barang madaniy-ma'rifiy boyliklarni yaratgani, xalq talantlari uchun imkoniyat yarata olganligi, turkiy xalqlar madaniyati tarixida tamoman yangi, uzoq asrlarga ozuqa bergan qatlamlar, yangi sahifalar vujudga keltirgani bilan mashhurdir. Temur mamlakatning iqtisodiy qudratini oshirishga harakat qildi. U ishgʻol qilgan xorijiy mamlakatlardagi ilm ahlini oʻz panohiga oldi. Movaraunnahr va Xuroson shaharlarining obodonchiligi uchun jon kuydirdi.

XIV asrning oxiriga kelib samarqand sharqning eng goʻzal, obod shaharlaridan biriga aylandi. Bu yerda ulkan binolar, keng xiyobonlar qurishga katta e'tibor berildi. Xususan Samarqandda Bibixonim, Koʻksaroy masjidi,

²² Хайруллаев М.М. Маънавият юлдузлари. Т.: 1997 й. "Абдулла Қодирий" 53-54 бетлар

Shoxizinda maqbarasi, Kesh shahrida Oqsaroy, Samarqand atrofida Bog‘i Shamol, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i nav, Bog‘i Chinor kabi bog‘lar, Amudaryo va Sirdaryo ko‘priklari, karvon saroylari, rabotlar qurdirildi. Ko‘plab madrasa va xonaqoxlar hammomlar barpo qilindi.

Temuriylar davrida ma'naviy-madaniy rivojlanish islom diniy qarashlarining mustahkamlanib borishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, hukmron mafkura sifatida madrasayu masjidlarda keng o‘qitilib o‘rganilib, qonun-qoida, odat, an'analar esa shariat asosida olib borilar edi. “Temur tuzuklari”da din arboblari, shayx sayyid, ulamolar faoliyatiga alohida o‘rin ajratilib, ularning davlat ishlaridagi ishtiroki maxsus va bir necha bor qayd etilib o‘tiladi. Lekin bu davrda shu bilan birga xalq orasida, ayniqsa, ziyolilar, aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchi ilm-fan, san'at, madaniyat xodimlari o‘rtasida o‘z davrida islom qoidalarini zamona talablari, ijtimoiy yuksalishi zarurlari asosida talqin etishga intilish natijasida yuzaga kelgan tasavvuf ta'limoti keng tarqaladi. Markaziy osiyoda XI asrdan boshlab yoyila boshlagan tasavvuf ta'limoti bu davrga kelib Movaraunnahr va Xuroson tasavvufning yassaviya, kubraviya, qodiriya va ayniqsa naqshbandiya tariqati ma'naviy hayotda katta rol o‘ynaydi.

Naqshbandiya tariqati Yusuf Hamadoniy, G‘ijduvoniy va XIV asrga kelib Bahouddin Naqshband nomi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu ta'limot XV asrda nazariy va amaliy jihatdan yanada rivoj topib, u saroy ahli ko‘p hollarda temuriyodalarning faoliyatiga ham ta'sir ko‘rsatdi.²³

Temur va Temuriylar davridagi madaniy yuksalishning umumiy omillarini aniqlash shuni ko‘rsatadiki, ular o‘zaro uzviy bog‘langan va yaxlit bir butun holdagina qisqa vaqt ichidagi madaniy-ma'naviy yuksalishni yuzaga keltirgan.

Bulardan birinchi navbatda siyosiy-ijtimoiy omilni ko‘rsatish mumkin. Mug‘illar tomonidan ayovsiz ezilgan xalqning mustamlakachilikdan qutulishi, mamlakatda yagona birlashgan davlatning barpo etilishi, yagona davlatchilik asosida boshqarish qoidalarining joriy etilishi, zo‘rovonliklar, o‘zbilarmonchilik kabi illatlarning tugatilishi ijtimoiy yuksalishni ta'minlash.

²³ Хайруллаев М.М. Маънавият юлдузлари. Т.: 1997 й. “Абдулла Қодирий” 60- бет

Ikkinchi – iqtisodiy omil-Movaraunnahr va Xurosonda yagona idora tizimining joriy etilishi iqtisodiy osoyishtalik ishlab chiqarishning so‘nggi rivojlanishiga olib keldi. Davlat tomonidan dehqonchilik, hunarmandchilik, savdosotiqning rivojiga e‘tibor berilishi va bu sohada qator tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatning ma‘naviy-madaniy taraqqiyoti uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi – ma‘naviy omil-avvalgi madaniy meros, ma‘naviy qadriyatlar, boyliklardan keng foydalanish, ular asosida rivojlanishni amalga oshirishdan iborat bo‘ldi. Markaziy Osiyoda avvalgi asrlarda, xususan IX-XIII asrlarda yaratilgan ma‘naviy-madaniy boyliklardan, Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Chag‘liniylar merosidan; arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Rumi, Tusiy, Attor kabi allomalar merosidan; musulmon sharqi ma‘naviy merosida katta ahamiyat kasb etgan qadimgi yunon ilmiy-ma‘naviy boyliklaridan keng foydalanildi.

To‘rtinchi – g‘oyaviy omil-bu omil ma‘naviy omilning uzviy davomi bo‘lsada, uning muhim ahamiyatga ega bo‘lganligi va o‘z davri ma‘naviy hayotida katta rol o‘ynaganligi uchun alohida ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Bu kabi omillar Temur va Temuriylar davri madaniyati, ma‘naviyatining tez hamda yuksak darajada ko‘tarilishiga olib keldiki, uning yutuqlari so‘nggi uzoq asrlar davomida madaniy rivojlanish uchun ozuqa bo‘ldi.

XIV asrning oxiri XV asr markaziy Osiyo, aniqrog‘i Movaraunnahr va Xuroson tarixida O‘rta asr uchun Oliy darajadagi madaniy-ma‘naviy yuksalish davri bo‘ldi.

XIV-XV asrlarga kelib islom, shariat mustahkamlanishi bilan, tasavvuf, ayniqsa, uning xalq hayotiga juda yaqin ko‘rinishi – Naqshbandiya tariqatining ustun bo‘lishi bilan ko‘zga tashlanadi. Bu davr ma‘naviy hayotida arab tiliga nisbatan turkiy va forsiy tilning roli kuchaydi. Uyg‘onish davri ma‘naviy-madaniy hayotida insoniy qadriyatlarning yuksak xislatlari – ilmga intilish, bilimni kuchaytirish, aqlni ulug‘lash, insoniylik, ruhiy poklanish, axloqiy kamolotga erishuv, adolat, ijtimoiy yuksalish, barcha uchun baxt-saodat, do‘stlik-birodarlik,

komil jamoa va komil insonni yaratish kabi masalalar ilgari surildi. Ular muhim ilmiy tadqiqotlar, adabiyot, san'at, diniy asarlarning mazmunini tashkil etdi. Bu davrdagi olim, mutafakkir, donishmand, san'atkorlarning ko'pchilligi shu maqsad yo'lida ijod qildilar. Bu davr madaniy ma'naviy yutuqlari xalqimizning keyingi madaniy rivojlanishida katta zamin yaratdi.

XVI asrda esa Hindistonda Boburiylar davlatining vujudga kelishi bilan Temuriylar davrida shakllangan ma'naviy madaniyatning qisman Hindiston tomon oqib o'tganini kuzatamiz. Boburiy podsholar Movaaraunnahr va Xuroson madaniy qadriyatlaridan keng foydalanishga intiladilar, ularni Hindiston yerida keng targ'ib etdilar. XVI asrda ko'pgina Markaziy Osiyolik donishmand, alloma, san'atkorlarning o'zlari yoki Boburiylar taklifi bilan Hindiston shaharlariga ketib qoldilar. Boburiylar saroyida turkiy, ayniqsa, forsiy tildagi adabiyot, san'at, ilm-fan rivoj topdi. Boburiylar o'zlarini Temuriylar davri madaniyatining merosxo'ri, davomchilaridan deb bildilar. Ayniqsa, Boburiylar Akbarshoh, Shohjaxon, Avrangzeb davrida Hindistonda Markaziy Osiyo ma'naviy qadriyatlariga asoslangan musulmon madaniyati keng rivoj topdi va muhim yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Temuriylar davrida rivoj topgan madaniy boyliklar ta'sirida yangi ma'naviy-madaniy qadriyatlar vujudga keldi, ayniqsa adabiyot, san'at, qisman ilm fan, xususan, tarix fanida ma'lum yutuqlar qo'lga kiritildi. Tasavvuf bu davrning dunyoqarashi, tasavvuri va ma'naviyatida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davrda bir qancha shoir va davlat arboblari yetishib chiqdi. Masalan: Hasanxoja Buxoriy Nisoriyning "Muzakkir al ahbob" hamda shoir Mutribiyning "Tazkirot ush-shuaro" tazkiralari, Muhammad Solihning XVI-XVIII asrlarda o'zbek va tojik tillarida she'riy asarlarini bitgan, Turkistonning turli shaharlaridan chiqqan shoir adiblarni ko'rsatib o'tish mumkin. Sayido Nasafiy, Turdi Farog'iy, Mashrab, So'fiy Olloyor shular jumlasidan bo'lib, ularning ijodi turli yo'nalishda ekanligini o'z davrining tushkunliklari, ziddiyatlari, qiyinchiliklarini o'zida ifodalashi bilan ko'zga tashlanadi. Bu davrda Hindistonda yashab ijod etgan, o'z asarlarini forsiyda

yozgan Mirzo Abdulqodir Bedilning (1644-1720) chuqur ijtimoiy falsafiy mazmundagi she'rlari Turkiston ziyolilari orasida e'tibor qozondi.

XVII asrda Subxonqulixon davrida tazkira tuzilib, unda o'z zamonasining ikki yuzta shoir, adib, adabiyotshunoslari haqida ma'lumotlar berildi.

Shu bilan birga Movaraunnahr, Xuroson hamda Hindistondagi madaniy ma'naviy hayot ma'lum vaqtga qadar o'zaro ta'sir va yaqin aloqalar davrini boshdan kechirdi.

XVII-XVIII asrlarda turkistonda hukmronlik uchun o'zaro kurashlar, boshboshdoqlik, parokandalik avj oldi. Mustaqil xonlikka ajrab chiqqan Xiva bilan Buxoro xonligi o'rtasida hamda ularning o'zidagi ichi ziddiyatlar nihoyatda kuchayib, uzoq vaqt davomida notinchlikni boshlaridan kechirdilar. Bu hammasi ma'naviy madaniyatga salbiy ta'sir etmay qolmadi. Nisbiy tushkunlik, oldingi yutuqlarni yo'qotish, susayish bu davr ma'naviy madaniyatini tasvirlovchi xislatlar bo'lib qoldi va ma'naviy madaniyat arboblari shunday sharoitda jon saqlashga intildilar. Ma'naviy madaniy sohadagi o'zgarishlar ayrim yangiliklar Buxoro, Samarqand, Xiva shaharlari bilan bog'liq bo'lib qoldi. XVIII asrning oxiri –XIX asr boshlariga kelib xonliklar o'rtasidagi chegaralar va munosabatlar ma'lum darajada mo'tadillashganini kuzatamiz.

XVIII asrning oxiriga kelib Farg'ona vodiysida Qo'qon xonligi vujudga keldi va qisqa davr ichida iqtisodiy-siyosiy jihatdan o'z mavqeyini yaxshilab, Buxoro va Xiva xonliklari qatoridan mustaqil o'rin egalladi. Bu davrda Turkiston xalqlari ma'naviy madaniy rivojlanishi, asosan shu uch xonlik hududida rivojlandi. XIX asrning birinchi yarmida, ayniqsa Qo'qon va xiva xonliklarida ma'lum madaniy ma'naviy siljishlar ro'y berdi. Madaniyatimiz ma'naviyatimiz tarixiga muhim hissa qo'shgan adib, san'atkor olimlar yetishib chiqdi.

Umuman XVI-XIX asrning birinchi yarmi madaniyatida ilm-fan, xususan, tabiiy fanlarning o'rni susayganini, diniy bilimlar, diniy taasubning roli kuchaya borganini ko'ramiz. O'zaro urushlar tufayli tashqi olam bilan aloqalar, ma'naviy-madaniy munosabatlarning kamayib ketishi ham madaniy hayotdagi ma'lum biqizilishga, yangiliklardan uzilib qolishiga olib keldi. Ilm-fan, madaniyat sohasida

oldingi erishilgan yutuqlar ham o'z ta'sirini yo'qotib ularga murojaat etish o'rniga diniy ta'limotlar kuchayganini ko'ramiz. Natijada bu davrda an'anaviy islom, uning qoidalari jamiyat hayotida hal etuvchi o'rnini egallab, tasavvuf, xususan, naqshbandiya ham ma'naviy hayotdagi oldingi ta'sirini yo'qota boshladi. Shu bilan birga bu davrda turkiy-o'zbek, tilidagi badiiy adabiyot namunalarining ko'paya borganini, adabiyot, she'riyat ma'naviy hayotning eng muhim asosiy sohasiga aylanib, an'anaviy lirik asarlar bilan birga shoir, adiblar dunyoviy hayot qiyinchiliklari, diniy taasubning kuchayishiga bo'lgan noroziliklari, so'fiyona fikrlarini she'riyat orqali ifoda etishga intilganliklarini aytib o'tish mumkin.

Bu davrda Mahmudi A'zam, Mirzo Haydar, Abdulg'oziyxon, Buxoriy kabi gumanitar ilm vakillari Mashrab, Turdi, Nodira, Uvaysiy, Munis Xorazmiy kabi mashhur shoirlarni yetishtirdiki, ular asarlarida o'z zamonasining saboqlari, istaklari, alamlarini aks ettirdilar. XIX asrning ikkinchi yarmida Ovro'po va sharq mamlakatlarida ro'y berayotgan iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy o'zgarishlar turli yo'llar bilan Turkiston hayotiga ham asta-sekin kirib keldi va o'zining ayrim alomatlarini ko'rsata boshladi.

Bu davrga kelib Rossiya chorizmi ko'pdan beri mo'ljallab kelgan o'z maqsadini Turkistonni bosib olish va o'z imperiyasi chegaralarini yanada janubga qarab kengaytirishni tezlik bilan amalga oshirishga kirishdi va 1860 yillardan boshlab turkiston xonliklariga qarshi o'z ixtiyoridagi barcha qurollardan foydlangan holda shiddatli hujumga o'tdi. Xonliklar va yerli xalqning keskin kurashi qarshiligiga qaramay 1870 yillarga kelib Qo'qon xonligi tugatildi. Buxoro va Xiva xonliklari Rossiyaning vassaliga aylandi: Turkistonda rus mustamlakachilik tuzumi o'rnatildi, u rus gubernatori tomonidan boshqarila boshlandi. Rus chorizmi Turkistonda o'z mustamlakachilik siyosatini o'tkazish yo'lida barcha choralarni amalga oshirib, uning boyliklaridan imkoni boricha keng foydalanishga kirishdi. Jahon va ayniqsa Yaqin Sharq mamlakatlaridagi o'zgarish va Rossiyaning yangi mustamlakasiga oqib kelayotgan Ovro'po madaniyati yangiliklari Turkiston madaniyatida yerli xalqning mustamlakachilik siyosati, kamsitilishiga qarshi ma'rifatchilik harakatini kuchaytirib yubordi. U asosan xalqni

yangi madaniyat ma'rifatga chaqirishga, millatni uyg'otishga, yangilayotgan ma'naviyatni egallashga yo'naltirilgan edi. Asta-sekin ma'rifatchilikdan jadidchilik o'sib chiqdi va u ma'lum darajada siyosiy masalalarni olg'a sura boshladi. Yangi ta'lim-tarbiya yangi maktab, yangi maorif, uni boshqarish, madaniy targ'ibot, tashkilotchilik masalalari asosiy o'ringa ko'tarildi. Yangiliklarga asoslangan holda rus va eski feodal maorifidan farq qiluvchi fikr-g'oyalar oldinga surildi, ular yerli matbuot, turli kitoblar orqali keng targ'ib etildi. Bu madaniyatdagi mustamlakachilikka qarshi kurashda xalq ongini oshirish, o'z ahvolini yaxshilashga intilishning ko'rinishlaridan edi.

XIX asrning oxiri XX asr boshida Turkiston madaniyati qator talantli olim, sayyoh, shoir, pedagog, jurnalistlarni yetishtirib chiqardi, ular xalqimizning umumiy madaniy rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda Ahmad Donish, Berdaq, Feruz, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Bayoniy, Avaz O'tar kabi olim shoirlar o'z davrining muhim masalalarini ko'tarib chiqdilar va xalqni ilm-fan ma'rifatini egallashga undadilar. Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Ayniy, Hamza kabi talant egalari jadidchilik g'oyalarini olg'a surish va targ'ib qilish sohasida bayroqdor bo'lib tanilganlar. Turkistonning o'z rivojlanish yo'lini targ'ib etishda jonbozlik ko'rsatganlar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ikki daryo – Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi o'lka jo'g'rofiy – tabiiy xususiyatlari jihatidan inson jamoasining rivoji uchun eng qulay bo'lgan makonlardandir. Sersuv vodiylari, ko'm-ko'k qirbag'irlari, daraxtzorlari, yerosti boyliklari odamlarning yashashi, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilikning rivoji uchun tabiiy imkoniyatlarni vujudga keltirgandir. Shu sababdan ham Movaraunnahr, Turkiston, Markaziy Osiyo kabi nomlar bilan yuritiluvchi bu makonda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish, madaniyat taraqqiysi, davlatchilikning shaklanib, kuchayib borishi miloddan oldingi bir necha asrlar avval boshlanganligi ilm-fanda allaqachonlar isbotlangan.

O'zbekiston mustaqillikka erishuvi siyosiy-iqtisodiy, madaniy sohalarda tamoman yangi davrni boshlab berdi. Xalqimizning 10 asrlik madaniyati tarixini kuzatish mustaqillik madaniyati, ma'naviyatini shakllantirishda tarixdan ko'p

saboqlar olish mumkinligi va bu saboqlar kelajak uchun shubhasiz foydali ekanligini ko'rsatdi.

Avvalambor, haqiqiy ma'naviy yuksalish, madaniy taraqqiyot uchun xalqimiz mustaqil davlatga ega bo'lishi, qaramlilik siquvidan ozod bo'lishi zarurdir. Qaram bo'lib yashagan xalq ma'naviy erkinlikka, taraqqiyotga erisha olmaydi, u o'zligidan, o'z ruhiy qudratidan mahrum bo'ladi.

Hozirda mustaqillikka erishgan O'zbekiston o'z milliy madaniyatini yuksak darajada mustahkamlab va rivojlantirib mustaqillik yo'lida ikkilanmay qadam tashlab, shiddat bilan olg'a bormoqda.

- Mustaqillikka erishuv zarur siyosiy, iqtisodiy muammolarni yechishi talab etadi, lekin madaniy-ma'naviy rivojlanishsiz siyosiy-iqtisodiy taraqqiyot umumiy ijtimoiy masalalarni yechishga, so'nggi maqsad-yetuk inson va jamoani yaratishga ojizdir. Shuning uchun madaniy-ma'naviy hokimiyat, davlatning maxsus e'tibor berishi, ularni hal etishi, madaniy yuksalish uchun, ma'naviy rivojlanish uchun, ma'naviy qadriyatlarni kuchaytirish, ularni yaratish va yaratuvchilarga keng imkoniyatlar qidirmog'i talab etiladi. Hozirgi kunda O'zbekistonda bu yo'nalishda ham muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

- Ma'naviy madaniyat, ma'naviyat yutuqlari aksari madaniy yuksalish jarayonida vujudga keluvchi va uni ifodalovchi olim-fozil, donishmand, adib, din arboblari va ular faoliyati, yozib qoldirgan merosi kabilarda aks etib, muhrlanib qoladi. Albatta turli an'analar, arxeologik yodgorliklar, buyumlar va boshqalarda ham xalq ma'naviyati yutuqlari ifodalanadi, lekin yozma adabiyot, qo'lyozmalar bu jihatdan alohida ahamiyatga egadir. Shuning uchun o'tmishdagi buyuk siymolar, allomalar, adiblarning faoliyati, asarlarini o'rganish, ularni hozirda nashr etish, targ'ib qilish, yubileylarini o'tkazish, madaniyat tarixini-ma'naviy boyligimizni chuqur bilish ishida nihoyatda muhimdir.

- Allomalar, siymolar merosi Markaziy Osiyoda o'tmishda ilm-fan, madaniyatining barcha sohalari, tarmoqlari rivojlangani, ularning ijodlari ko'pqirrali bo'lganligi, faoliyatida ilm-fan bilan bir qatorda din, axloq, insonning

ma'naviy dunyosi, jamoaning hamjihatligi, uni odilona boshqarish, saodati masalalari muhim o‘rin tutganligidan dalolat beradi.

- Ularning merosi va madaniyat tarixi yana ilm fan va diniy qoidalarning bir butunligini tashkil etib, umumiy ma'naviyat rivoji uchun xizmat qila olishini, foydali bo‘lishini isbotlaydi. Fan va din xalq madaniyatining turli sohalari, qismlari bo‘lib, yagona maqsadga yo‘naltirishga xizmat qilishi mumkin. Diniy taasubning ilm-fan hisobiga kuchayuvchi ijtimoiy rivojlanishga, madaniyatning kuchayishiga zarar keltirishini ma'lum tarixiy davrlarda yuz bergan jarayonlar o‘zida ifodalaydi.

- Madaniy rivojlanishda milliy ma'naviy boylikni boshqa xalqlar, mamlakatlar madaniyati yutuqlaridan bahramand bo‘lish, madaniy aloqalarni kuchaytirish, milliy qobig‘ida o‘ralib, umumiy xalqaro aloqalar tizmasidan chetda ajralib qolmaslik, milliy madaniyatning umumjahon madaniyat yutuqlari bilan doimo boyib borishida nihoyatda katta rol o‘ynaydi.

Bu ayniqsa, hozirda jahon mamlakatlarining umumiylik, hamjihatlikka intilishi ortib borayotgan bir sharoitda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda, hozirda yoshlarda yuksak ma'naviyatni tarbiyalash barcha tarixiy madaniy boyliklarni asosiy tomonlarini o‘rganish, milliy madaniyatimiz rivoji, davrlari, taraqqiyot qonuniyatlari, ma'naviy boyliklarni yaratgan yirik siymolar, donishmand adiblarning merosini o‘zlashtirish, boshqa rivojlangan mamlakat madaniyati yutuqlarini o‘rganish, ularga hurmat-izzatda bo‘lishni bu masalalar bo‘yicha keng ta'lim o‘quv-o‘qituv ishlarining olib borish talab etiladi. Bu mustaqillik sharoitida yosh avlodga milliy madaniy boyliklarni yaxshi bilgan, milliy g‘urur, vatanparvarlik hissi bilan yo‘g‘irilgan, dunyo madaniy rivojlanish darajasidan xabardor bo‘lib yetishivuda yetakchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov ham o‘zining “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida mana shunday jihatlariga katta e'tibor qaratgan.

“Biz xalqimizning dunyoda hych kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli bilimli, dona va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu

borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va ma'suuliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z bo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiy yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin".²⁴

“O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q”.

Ma'lumki, biz boshimizdan kechirgan sobiq mustabid tuzum davrida milliy ma'naviyatni rivojlantirishga yo'l qo'yilmagan. Aksincha xalqimizning tabiati, yashash tarziga yot bo'lgan kommunistik mafkurani har qanday yo'llar va zo'ravonlik bilan joriy etishga harakat qilingan. Shuning uchun ham istiqlolning dastlabki kunlaridanoq bu sohadagi ahvolni tubdan o'zgartirish yurtimizda eng dolzarb va hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi.

“O'tgan davr mobaynida eski tuzumdan og'ir meros bo'lib qolgan ana shunday illatlarga, el yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish ko'hna qadriyatlarimiz, dinu diyonatimizni tiklash hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo'lida xalqimizning ma'naviy yuksalishini o'z oldimizga qo'ygan olijanob maqsadlarga yetishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelganini va bugun ham e'tiborimiz markazida turganini ta'kidlash lozim”.²⁵

Shuni mamnuniyat bilan qayd etish lozimki, ezgu fazilat va intilishlar xalqimizning qon-qoni va suyak-suyagiga singib ketgan. Uning tabiatiga xos bo'lgan yuksak ma'naviyat necha asrlarni bizni ne-ne balo-qazolardan, to'fon va bo'ronlardan sog'-omon asrab kelmoqda. Har qanday bosqich va istilolarga qaramasdan, har qanday og'ir va murakkab sharoitda ham ota-bobolarimiz o'zligini yo'qotmasdan, ma'naviy hayot mezonlari, odob-ahloq qoidalariga amal qilib, barchamizga ibrat bo'lib, kuch-quvvat bahishlab kelmoqda.

²⁴ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008. 4-бет

²⁵ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008. 6-7 бетлар

Ma'lumki, har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z-o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'lishini hammamiz yaxshi bilamiz.

Masalan, Sharq olamida, jumladan, o'zimizning O'rta Osiyo sharoitida jamoa bo'lib yashash tuyg'usi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi va odamlarni bir-biriga yaqinlashtirishga, bir-birini qo'llab quvvatlab hayot kechirishga zamin tug'diradi. Shu ma'noda, xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqalarga hych o'xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan nafaqat o'zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz.

Misol uchun, tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g'alati tuyulishi, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o'zi mushkul bir muammo.

Shuni aytish lozimki, bu tushunchalar kimdir shunchaki o'ylab topgan shirin kalom, quloqqa xush yoqadigan so'zlar emas. Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ong-u shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning amaliy ifodasidir.

Masalan, ezgu odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasini oladigan bo'lsak, uning juda teran tarixiy, milliy, diniy ildizlari borligini ko'rish mumkin. Bu avvalo insonning inson bilan, qo'shning qo'shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi shaxsning jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashini, yetim-yesir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga sahovat ko'rsatish, sidqidildan, beg'araz yordam berishni anglatadi va bunday xususiyat xalqimizning ma'anaviy olamiga singib ketganini hych kim inkor eta olmaydi.

Sharq xalqlari va yurtimiz ahliga mansub shunday belgi-alomatlar haqida gapirganda, ularning tarixiy ijtimoiy zaminiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Tarixdan ma'lumki, O'rta Osiyo hududida aholi azaldan vodiylarda katta suv manbalari – daryo va anhorlar bo'yida yashab keladi. Atrofi cho'l va sahrolar bilan o'ralgan, tabiati, iqlimi g'oyat murakkab bo'lgan mintqa sharoitning o'zi ana shu elat va millatning ming yillar davomida bir-biriga moslashib, yaqin yelkadosh bo'lib, bir-birining og'irini yengil qilib yashashini taqazo etib keladi.

Chindan ham bu zaminda tarqoq bo'lib istiqomat qilishning iloji yo'q, tabiatning o'zi, hayotning o'zi ularni shu ruhda tarbiyalagan. Turmush va tafakkur tarzimizning ajralmas qismiga aylanib ketgan mana shunday azaliy tushanchalar mintaqamizda yashab o'tgan ulug' allomalar, mutafakkir zotlarning qoldirgan merosida ham o'zining yorqin ifodasini topgan. Misol uchun Alisher Navoiy bobomiz bo'ladimi, Ro'dakiy, Abay, Mahtumquli kabi ulug' zotlar bo'ladimi, ularning barchasi o'z ijodi bilan nafaqat ikki daryo oralig'idagi xalqlarni, balki butun bashariyat farzandlarini doimo mehr-oqibatli, do'st-birodar bo'lib yashashga da'vat etgani bejiz emas, albatta.

Bir so'z bilan aytganda tarixiy voqye'likka mana shunday qarash, jamuljam bo'lib yashash tuyg'usi biz uchun hayot falsafasiga, yana ham aniqrog'i hayot qoidasiga aylanib ketgan. Zamonaviy tilda aytadigan bo'lsak, bu milliy mentalitetimizning asosini tashkil etadigan, bizni boshqalardan ajratib turadigan shunday bir xususiyatki, uni anglamaslik, sezmaslik, ko'rmaslik umuman mumkin emas.

Albatta, O'rta Osiyo muhitida jamoa, mahalla bo'lib, bir-biriga mehr-oqibatli bo'lib yashayotgan insonlar, davr qanchalik o'zgarmasin tarix sinovidan o'tgan o'z qadriyatlariga sodiq bo'lib yashashni ma'qul ko'rar ekan, buni zamonaviy fikrlaydigan, dunyoga teran nazar tashlaydigan odam to'g'ri tushunishi, tan olishi va uni hurmat bilan qabul qilishi lozim.

Ming afsuski, mana shunday tarixiy haqiqatni anglamaydigan yoki anglashni istamaydigan chet eldagi ba'zi siyosatchi va arboblarni nafaqat siyosat yoki iqtisodiyot, balki ma'naviyat bobida ham bizga aql o'rgatishga, azaliy hayot tarzimiz, ruhiy dunyomizga yod bo'lgan qarashlarni majburan joriy etishga urunmoqda.

Bunday kuchlarning g‘arazli munosabati avvalo, boy va qadimiy ma’naviyatimizga qarshi qaratilgani, ular xalqimizni ana shu bebaho boylikdan judo qilish uchun har xil usul va vositalar bilan zo‘r berib urinayotgani barchamizni tashvishlantirmasdan qolmaydi, albatta.

Nega deganda insoniyatning ko‘p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo‘ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o‘ziga tobe' qilib, bo‘ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo‘lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo‘lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma’naviyatidan judo qilishga urinadilar.

I.2.Talaba yoshlar ma’naviyatini shakllantirish omillari.

Islahotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri xalqning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Shu ma’noda o‘sib kelayotgan yosh avlodda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirish zaruriyati yuzaga keladi.

Axloq kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelib, tarkib topgan, takomillashib kelgan me'yor va qoidalardan iborat bo‘lib, ular kishilarning jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga soladi. Bu me'yor va tartib qoidalar kishilardan jamiyat uchun zarur bo‘lgan axloqqa ega bo‘lishlikni talab qiladi.

Shunga muvofiq, biror shaxsning xulq-atvori, yurish turishiga axloqli yoki axloqsiz deb baholashga imkon beradi.

O‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy axloqqa quyidagicha ta’rif beradi: “Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqning yaxshiligini, yomon xulqning yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qiladurgon kitobni axloq deyilur”.²⁶

Axloq – inson hayotida o‘z-o‘zini idora qilish me'yorlarini, boshqalar bilan munosabatda bo‘lish madaniyatini, halol ishlab, to‘g‘ri hayot kechirish mezonlarini

²⁶ А.Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ.Т.:“Ўқитувчи” 1992 й., 11-бет

o‘rgatadi. Ibn Sino: “Axloq har bir kishi uchun o‘z-o‘zini idora qilish ilmidur”, deb uning mazmunini ifodalab bergan edi. Axloq me‘yori va qoidalari tarixiy tarqqiyot davomida tarkib topib takomillashib borgan va kishilarda birgalikda yashash sharoitidan, tabiiy ehtiyojidan ijtimoiy manfaatlari va hayot talablaridan kelib chiqqan va ular muayyan tarixiy davridagi kishilarning hatti-harakati, yurish-turishi va boshqalarga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘lgan. Ana shu tartib-qoidalarsiz biron-bir jamiyat bo‘lmagan va bo‘lmaydi ham. Axloqiy fazilatlar h hech qachon o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday ahloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasida vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Demak, axloqning rivojlanish ob'ektiv shart-sharoitlari bilan sub'ektiv omillarining o‘zaro munosabati qay darajada ekanligi bilan bog‘liqdir.

Inson ijtimoiy hayotga aralashar ekan, ijtimoiy munosabatlar ta'siriga tushadi. Ijtimoiy munosabatlar o‘zgarish bilan shaxsning ma'naviy qiyofasi, yangi dunyoqarash g‘oya va tasavvurlari, jumladan axloqi, shuningdek, unga bo‘lgan qarashlari ham o‘zgarib boradi.

Har qanday shaxs o‘z dunyo qarashi, axloqiy qoidalarini va ular ta'sirida shakllangan odat va ko‘nikmalarni o‘zlashtirib borishi bilan birga aniq ijtimoiy voqyealarga, o‘zini o‘rab olgan narsa va hodisalarga, kishilarning xatt-harakatlariga, yurish-turishlari va muammolariga muayyan hayotiy mavqye'da turib maqsadga muvofiq tarzda baho beradi.

Axloq tarixiy hodisa. Axloq norma-qoidalari barcha zamonlar uchun bir xil, o‘zgarmas bo‘lishi mumkin emas. Muayyan jamiyat uchun ayrim axloqiy qoidalar to‘g‘ri bo‘lsa, boshqa davrga kelib noto‘g‘ri bo‘lib qolishi mumkin.

Shuningdek, u yoki bu mamlakatlar xalqlari uchun shu xalqning an'ana va urf-odatlaridan kelib chiqadigan ba'zi qoidalar axloqiylik yoki axloqsizlik bo‘lishi mumkin. Shak shubhasiz, bu turli-tumanlik bola tarbiyasida ham o‘z aksini topadi.

Zotan, dunyodagi barcha mamlakatlar, millat yoki elatlar uchun odatlar, rasm-rusumlar, axloqiy qoidalar bir xil bo‘lishi mumkin emas. Bu qoidalar tarixan

tarkib topgan bo‘lib, iqlim va joy, an‘ana va sharoit ta‘sirida o‘zgarib, rivojlanib boradi. Ana shularning hammasini bilib, ularni o‘z o‘rnida to‘g‘ri tushunish ham tarbiyalanganlik belgisi hisoblanadi.

Ayni vaqtda, mintaqaviy hududni o‘z ichiga oladigan bir qator xalqlarning turmush tarzidan, yashash sharoitidan kelib chiqadigan qoidalar ham mavjuddir. Masalan, shu ma'noda sharqona yohud o‘zbekona degan iborani ishlatamiz.

O‘zbekona, milliy axloqda ota-bobolarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovidan o‘tgan saboqlari va bizga doimo madad bo‘lib turgan ruhiy quvvatlari jamuljamdir. Ularning sharofatlari tufayli milliy-axloqiy qadriyatlarimiz asrlar osha avloddan-avlodlarga o‘tib kelmoqda. Chunki bir tomchi bo‘lsa ham ularning qoni tomirimizda oqayotir. Ana shu qonni jo‘sh urdirmoq bilan yuraklarimiz uyg‘oq, dilimiz ravshan, tafakkurimiz munavvardir. Ana shunday kayfiyat bizning dilimizda ko‘p yillardan beri yashirilib kelinar edi. Endilikda milliy istiqlolimiz tufayli milliy-axloqiy qadriyatlarimiz qaytadan tiklandi. Ulardan bolalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda foydalanish, milliy tarbiyamiz uchun ob'ektiv pedagogik zaruriyatga aylandi.

Yosh mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur.

Shuning uchun ham yurtboshimiz “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” degan hikmatli shiorni yanada balandroq ko‘tardiki, fuqarolardagi yuksak ma'naviyat mustaqillikni mustahkamlash, rivojlantirish uchun muhim va zaruriy tamoyillardan biri bo‘lib qoldi.

Barkamol insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida sharq allomalari bir qator pedagogik-psixologik g‘oyalarini yaratgan.

Jumladan, “Abu Nasr Farobiyning insonparvarlik g‘oyasi uning uqtirishicha, insonni baxt-saodatga elituvchi jamoa yetuk jamoa bo‘la olishi mumkin. Komil insonni yaratish, uni baxt-saodatga elitish, har qanday davlat, jamoa boshlig‘ining

vazifasi bo‘lishi darkor”²⁷ deb ta’kidlasa, Abu Rayhon Beruniy esa muruvvat va futuvvatni eng yaxshi insoniy fazilat²⁸ deb hisoblaydi.

Uning ta’kidlashicha, muruvvatli kishi o‘z qobiliyati xushmuomalaligi, shafqatliligi, qat’iyatliligi, chidam, fazilat va kamtarlik xislatlari bilan komil inson sifatida ajralib turadi²⁹ deydi. Yusuf Xos Hojib esa komil insonni tarbiyalashda esa ota-onaning o‘g‘il va qiz tarbiyasidagi ijobiy ma’suliyati muhim rol o‘ynaydi. Ular tanlagan to‘g‘ri yo‘l farzandlarining kelajagi kamoloti uchun nihoyatda muhimdir deb ta’kidlasa, Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining bebaho “Devonu lug‘otit turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”) asarida XI asrdagi xalqlarning urf-odatlarini, an’analarini, qadriyatlarini o‘sha davr kishilarining o‘ziga xos ruhiy ma’naviy olamini bayon etadi. Mahmud Qoshg‘oriy insonning ruhiy olami, ma’naviyati ilm-fan, ma’rifat va madaniyat bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Bulardan tashqari Kaykovusning “Qobusnoma”, Sayidiyning “Guliston”, “Bo‘ston”, Amir Temurning “Temur tuzuklari” Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” va boshqalarni ko‘rsatishimiz mumkin.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ta’lim-tarbiyaning mazmun va mohiyatida, usullari va shakllarida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi.

Ta’lim-tarbiyada milliy qadriyatni shakllantirish va urf-odatlarga e’tibor kuchaydi.

Haqiqatdan ham bugungi kunda O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash va kelajakda istiqbol istiqbolini rivojlantirish, avvalo yuksak ma’naviyatli komil insonlarga bog‘liq. Chunki bunday insonlar tufayli fan va madaniyat, sanoat va qishloq xo‘jaligi rivojlanadi. Zero, axloqiy madaniyat vazifalaridan biri yuksak ma’naviyatli komil insonni voyaga yetkazish, uni tarbiyalashdan iborat.

Yuksak ma’naviyatli komil inson O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda o‘z e’tiqodi, g‘ayrat shijoati, madaniyati, bilimi va ularni tadbqiq etish mahorati bilan ajralib turadi. U jamiyatda, jamoada xalqlar va millatlar

²⁷ Abu Nasr Farobiy Fozil odamlar sha’ri. T.: Abdulla Kodiriy nomiдаги халқ мероси, 1993 й.25-бет

²⁸ Abu Rayhon Beruniy Feruza, T.: Abdulla Kodiriy nomiдаги халқ мероси нашриёти. 1993 й. 32-бет

²⁹ Usha kitob. 46-бет

o'rtasida do'stlik, sog'lom-turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan muhitni vujudga kelitirishga intiladi.

Yuksak ma'naviyatli komil insonni shakllantirishda maktabda, oilada, kasb-hunar kollejlari va akademik litsey hamda oliy bilim yurtlarida sog'lom ma'naviy muhit barqaror bo'lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Chunki sog'lom muhit natijasidagina axloqiy fazilatlar tarkib topadi.

Kishi o'z hayotida axloqiy tarbiya sohasida kamolotga qanchalik ko'p intilsa, shunchalik o'z xato-kamchiliklarini anglab boradi.

Turon zaminimiz xalqlari axloqiy tarbiya sohasida boy an'analarga ega. Axloqqa oida dastlabki fikrlar "Avesto" kitobida, qadimgi bitiklarda va boshqa yozma manbaalarda o'z ifodasini topgan. Bulardan tashqari, o'zbek xalqi o'rtasida keng tarqalgan pandnomalar, o'g'itlar va odobnomalarda, xalq pedagogikasida, falsafiy risolalarda, allomalar merosida axloqiy masalalarga keng o'rin berilgan.

Axloq-odob insonning jamiyatga bo'lgan munosabatining negizini tashkil etadi. Shuning uchun ham jamiyatga bo'lgan hurmatni yuksaltirish, mustaqilligimizni mustahkamlashga, axloqiy madaniyat egasi bo'lishga, axloqni ongni o'zini-o'zi anglab yetishga, yaxshi insonlarga bo'lgan e'tiqodni rivojlantirishga olib keladi. Maktab o'quvchilari dars va darsdan tashqari jarayonlarda do'stlik, hamjihatlik, hamkorlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, birovning dardiga darmon bo'lish kabi fazilatlar xalqimiz va millatimiz kuch-qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizi ekanligini o'z o'quvchilariga tushuntirishlari darkor.

Ma'naviy-ahloqiy tarbiya ma'naviy ongni bir maqsadni ko'zlab tarkib toptirish, axloqiy tuyg'ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishda boshlang'ich maktab muhim o'rin egallaydi. Insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirish, komil insonni voyaga yetkazish kabilar axloqiy tarbiyaning vazifalaridir.

Axloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini yuqori pog'onaga ko'tarishdir.

Iymon va insof, so'z va ish birligi, insonparvarlik yangi qurilayotgan jamiyatning asosiy xususiyatlari bo'lib qoladi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati uning baxt-saodati uchun kurashish ma'suliyatini har bir fuqaro teran his etishi va unga amal qilishi lozim. Yoshlarni tarbiyalashda sharqona va milliy odob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo'lish kabi fazilatlarni singdirish taqazo etiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilarning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Yoshlarni jamiyat manfaati uchun qilinadigan mehnatga ilhomlantirish o'qituvchining eng muhim vazifasi hisoblanadi. O'quvchining jamiyatga bo'lgan munosabatini milliy birlik, faxr va iftixor, birdamlik va hamkorlik tuyg'ulari, turli xalqlarga bo'lgan hurmat kabilar yaqqol namoyon bo'lishi zarur.

Axloq-odob insonning jamiyatga bo'lgan munosabatining negizini tashkil etadi. Shuning uchun ham o'quvchida jamiyatga bo'lgan hurmatni yuksaltirish mustaqilligimizni mustahkamlashga, axloqiy madaniyat egasi bo'lishiga, axloqiy ongni, o'zini o'zi anglab yetishiga, yaxshi insonlarga bo'lgan e'tiqodni rivojlantirishga olib keladi. O'qituvchilar dars va darsdan tashqari jarayonlarda do'stlik, hamjihatlik, hamkorlik, bir-birini qo'llab quvvatlash bironing dardiga darmon bo'lish kabi fazilatlar xalqimiz va millatimiz kuch-qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizi ekanligini o'z o'quvchilariga tushuntirishlari darkor.

O'zbekiston mustaqilligi, yurtimiz ravnaqi yoshlarni o'qish izlanish va mehnatdan qochmaydigan, har qanday qiyinchiliklardan hayiqmaydigan, salbiy illatlarga nafrat bilan qarash ruhida tarbiyalashni talab qiladi. Shunga ko'ra bugungi O'zbekiston zaminida yashayotgan har bir yosh kelgusida shu o'lkaning haqiqiy egasi bo'lib yetishishi uning gullab-yashnashi haqida qayg'urish, erishgan yutuqlarini mustahkamlashi lozim.

Har bir o'qituvchi o'quvchilarning ma'naviy ahloqiy tarbiyasida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- a) o'quvchilarda jamiyatga va Vatanga sadoqatni tarbiyalash;
- v) mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash;
- s) atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat.
- d) shaxsning o'ziga, o'z hulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalash.

Ahloqiy tarbiya vazifalaridan biri ongli intizom bo'lishdir. Ongli intizom kishining kundalik faoliyatida, xulq atvorida, kishilar bilan aloqasida, umumiy dunyoqarashida namoyon bo'ladi. Ongli intizomni kishining madaniyati, muomalasi kundalik masalalarni hal qilish bilan hayotning mazmuni, yaxshilik va yomonlik, ma'naviy boylik haqidagi tasavvurlari bilan u yoki bu tarzda bog'langandir.

Ongli intizom egasi bo'lgan kishi o'z axloqiy burchini to'g'ri anglaydi, o'z xatta-harakatini qoralaydi. Intizomli kishi o'z xulq atvoriga to'g'ri baho berish bilan ota-bobolardan, ajdodlardan yodgor bo'lib qolgan madaniy merosni qadrlash; milliy qadriyatlarni e'zozlash va ularga sodiq bo'lib qolish; vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularining barqaror bo'lishi; o'zaro muomala-munosabatda o'rnak bo'lishga moyillik bironing og'irini yengil qilishni odat qilish; umumxalq ma'qullagan va hukumat tomonidan qonuniniy qabul qilingan Konstitutsiyani hurmat qilish va unga sadoqat namunalarini amalda ko'rsatish; Vatanni himoya qilish, boshqacha aytganda, harbiy vatanparvarlik tuyg'ulari bilan yashash; diyonat va adolat, mehr-shafqat va ezgulikni himoya qilish; va'daga vafoli bo'lish va boshqalar kiradi.

Yoshlarni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashda o'qituvchi quyidagilarni hisobga olish kerak:

- Tarbiyaning o'quvchilar ruhiyati va yosh xususiyatiga mosligi;
- O'quvchilarning aqliy ma'naviy munosabatlari ta'sirini o'rganish;
- O'qituvchi-tarbiyachining savodxonlik darajasi, san'at va mahorati;³⁰

³⁰ R. Mavlonova, N. Voxidova, N. Raxmonqulova Pedagogika nazariyasi va tarixi, T.: «Fan va texnologiya», 2010 y. 318-319 betlar

O'quvchilarda yuksak ma'naviy –axloqiy sifatlarni shakllantirishda darslarni ijodiy, noan'anaviy, suhbat, o'yin, bahs-munozara uchrashuvlar shaklida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Komil inson shon-shuhrat, mansab, moddiy boylik ketidan quvmaydi, moddiy qiyinchiliklarga duch kelganda qaddi bukilmaydi, ba'zan uyushtirilgan tuhmatli fitnalar uning ruhini tushira olmaydi. Demak, har qanday shum taqdir va qismat pokiza, mard, ma'naviy barkamol inson ma'naviyatini buza olmaydi, balki mustahkamlaydi, chiniqtiradi. Yuksak darajadagi ma'naviyatga ega inson fidoyilik, jasorat, mardlik, o'z xalqini sevish, Vatanni qadrlash, ajdodlaridan faxrlanish kabi olijanob fazilatlari bilan ajralib turadi. Insonning insonligi, birinchi navbatda uning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. ma'naviy-axloqiy barkamollikning asosiy qirralariga yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, quyidagilarni kiritish mumkin: ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, mahalla ko'yi, qishloqdoshlari va butun mamlakat xalq faravonligi haqida qayg'urish; tevarak atrofdagi insonlar unga kerak bo'lgani singari, o'zi ham ularga kerakli bo'lishiga intilish; odob-axloqi, fe'l-atvorini yoqimli qilishni insoniy burch deb hisoblash; o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muhim sharti sifatida ularning o'quv va o'qishdan tashqari xilma-xil faoliyatlarning birligi to'g'risida tushunchalar bilan bog'liqdir.

O'quv va ma'naviy axloqiy tarbiya faoliyati bir birlarini to'ldirishi lozim: pedagog tomonidan tarbiyaviy bosqichga rahbarlik qilingan tadbirdagina tarbiyada biror maqsadga qaratilganlik, ma'lum bir tizimning bo'lishi mumkin. Ma'naviy-axloqiy tarbiyalash avvalo tarbiyalanuvchi shaxsining tarkib topish jarayonida rahbarlik qilishni taqazo etadi.

Insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi nafrat uyg'otish, ongli intizomni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish kabilar axloqiy tarbiyaning vazifalaridir.

Axloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini yuqori pog'onaga ko'tarishdir.

Prezidentimiz erkin fuqaro, ozod shaxs, komil inson haqida gapirib, quyidagi uch jihatga e'tiborni qaratdilar, ya'ni, har bir fuqaro:

- o'z haq-huquqini taniydigan bo'lsin, buning uchun kurashsin;
- o'z kuchi va imkoniyatlariga tayaanadigan bo'lsin, imkoniyatlarini ishga solib, samarasini ko'rsin;
- atrofida sodir bo'layotgan voqyea-hodisalarga mustaqil munosabat bildira olsin.

Prezidentimiz “Yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan yana bir muhim hayotiy omil bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'laydilar.

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boyluk bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.

Albatta, ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi.

Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha qilib aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi. “Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”³¹ – deb ta'kidlaydi muxtaram Prezidentimiz I.A.Karimov.

³¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Т.: Маънавият,2008 й. 62-бет

Abdulla Avloniy esa “Intizom deb qiladurgan ibratlarimizni, ishlarimizni har birini o‘z vaqtida tartibi ila qilmoqni ayturlar. Agar yer yuzida intizom bo‘lmasa edi, insonlar bir daqiqada yasholmas edilar”³² deb ta’kidlaydi. Demak, intizom ruhimizga fikrimizga ta’sir qiladigan hislat, tartib-odob, ma’naviy quvvatdir. Intizom yaxshi xulqlarning manbaidir.

O‘quvchilarda ongli intizomni, odobni tarbiyalashda o‘quvchilar o‘z hulq-atvorlari, muomala madaniyati bilan namuna bo‘lishlari darkor. Chunki ularning yurish-turishi, odobi o‘quvchining ichki e’tiqodiga aylanishi va ma’naviyatiga ta’sir etishi kerak. shundagina o‘quvchilar jamiyat va jamoa oldida axloqiy tarbiya talablariga javob beradigan hulq-atvor egalari bo‘la oladilar.

Axloq-odob tarbiyasi milliy, ma’naviy, umuminsoniy qadriyatlar asosida amalga oshirilgandagi uning mazmuni yanada boyib boradi. Chunki milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar axloqiy tarbiyaning hamma tomonlariga javob beradigan hulq-atvor egalari bo‘la oladilar.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya-ta’lim berish bilan bog‘liq bo‘lgani holda, o‘z xususiyatlariga, o‘ziga xos vazifalari, uni tashkil etishning forma va metodlariga ega bo‘lib, maxsus ravishda o‘rganilishi lozim.

Odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo‘lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta’sirini aniqlashda ilg‘or pedagogik olimlar psixologik va faylasuflar ta’limotiga suyanadi. Jamiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o‘rtasida ham uzviy aloqa mavjud. Shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi, tabiat, muhit, inson o‘rtasidagi murakkab aloqa ta’siri ostida ro‘y beradi, inson ularga faol ta’sir etadi va shu yo‘l bilan hayoti hamda o‘z tabiatini o‘zgartiradi. Shaxsga ijtimoiy muhitning ta’siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Ya’ni,

³² Абдулла Авлоний Туркий гулистон ёхуд ахлоқ Т.: “Ўқитувчи”, 1996й. 44-бет

Birinchiidan, tarbiya ta'sirida muhit beraolmagan bilim, ma'lumot egallanadi. Mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Ikkinchiidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib shaxs yuksak ma'naviy kamolotga yetadi.

Uchinchiidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchiidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanib, bir-biriga ta'sir etadi. Bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir degan xulosani chiqarish mumkin.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga qo'yiladigan hozir zamon talablarini amalga oshirish muammolari dinamik harakterga ega bo'lib, ijtimoiy tuzum taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Bu muammoni falsafa, etnografiya, etika, estetika fanlari tadqiq etadi.

“Madaniyat”-arabcha so'z bo'lib, u jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy hayotda va ma'naviyatda qo'lga kiritilgan yutuqlari majmuidir.³³

Demak madaniyat – inson faoliyati mahsuli natijasi sifatida, insonlarning moddiy va ma'naviy faoliyatlari jarayonida vujudga keladi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro ta'siri natijasida aqlan yetuk, axloqan yaxlit shakllangan shaxs tarkib topadi.

Inson biron moddiy boylik yaratar ekan, avvalo, uning qurilishi, ishlab chiqarish jarayoni va ta'lim-tarbiyaviy natijasining amaliy ahamiyatini oldindan ko'ra biladi.

Shaxs sifatida shakllanadigan o'quvchining ma'naviy kamolotida axloqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar, axloq qoidalari yordamida o'quvchining xulq-atvori, hatti-harakatlarini axloq qoidalari yordamida o'quvchining xulq-atvori,

³³ Ўзбекистон энциклопедияси. Т.: Маънавият, 5-том, 340-бет

xatta-harakatlarini boshqarish tizimi kiradi. Axloqiy madaniyat o'quvchining ko'p qirrali faoliyat davomida shakllanib va takomillashib boradi.

Axloqiy madaniyatning ko'rinishlari, uning qirralari va namoyon bo'lish shakllari xilma-xildir. Isnonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, erksevarlik, faollik, ijodkorlik, poklik va shu kabi qator muhim tushunchalar axloqiy madaniyat tushunchalaridir. Bu xislatlar faoliyat jarayonida ma'naviy madaniyatning boshqa madaniyat qirralari bilan birgalikda o'quvchi ongi va xulqiga ta'sir etadi.

Ma'naviy-axloqiy mazmundagi ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish ta'lim muassasasi pedagogik jamoa umumiy ishining tarkibiy qismi bo'lib, ularni o'tkazishda maktab rahbariyati, kasaba uyushmasi a'zolari, ota-onalar qo'mitasi o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari, shuningdek, jamoa tashkilotlari, xodimlari ham ishtirok etadi.

Ta'lim-muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani yo'lga qo'yishning quyidagi turlari alohida ahamiyatga egadir. Suhbatlar, uchrashuvlar, ertaliklar, haftaliklar, oyliklar, ko'riklar, konferensiya, bahs-munozara va boshqalar.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda tarbiyaviy tadbirlar umumiy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda o'z o'rnini va ahamiyatiga ega.

Ma'naviy-axloqiy mazmundagi tadbirlarni o'tkazish ushbu tarbiyani tashkil etishdagi ko'zlangan asosiy maqsadga xizmat qilmog'i kerak.

O'zida yuksak fazilat ma'naviy-axloqiy poklik va insoniy kamolot kabi xislatlarni bir-biri bilan uyg'unlashtiradigan shaxs tarbiyasi ta'lim-tarbiya tizimining bosh masalasi hisoblanadi.

Bugungi yoshlarda zamonamizning eng mashhur kishilariga o'xshashga harakat qilishlari namunaviy tarbiyaviy kuchi o'quvchilarning (bolalarning) taqlid qilishga moyilligiga asoslangandir. Yoshlar ko'pincha ota-onalariga, ma'lum bir ijobiy yutuqlarga erishgan qarindoshlariga, o'qituvchilariga va mashhur qahramonlarga taqlid qiladilar.

Turli yoshdagi bolalarga taqlid qilishga moyillik turlicha bo‘ladi. Bolalar ulg‘ayib borgan sari tevarak-atrofdagi katta yoshdagi kishilarning xatti-harakatlariga tobora tanqidiy nazar bilan qaraydigan bo‘ladi. Shu yoshdagi bolalar o‘z nuqtai nazarlaridan taqlid qilishga arzigulik deb bilgan kishilarni o‘zlari uchun namuna deb biladilar va ularga e‘tiqod qo‘yadilar.

Ma'lumki, tarbiya vositasi bo‘lgan namuna muhim e'tibori bilan e'tiqodga yaqin turadi. E'tiqod tushunchasi yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda muhim o‘rin tutadi. Bunda tarbiyachi o‘quvchilarning shaxsiy tajribaga tayanib ularning ongiga, hissiyotlariga ta'sir qiladi. Shu yo‘l bilan yoshlarda ijobiy axloqiy sifatlar tarkib topa boradi hamda mustahkamlanadi, ulardagi salbiy xulq-odatlari yo‘qotiladi.

O‘quvchilarda e'tiqod hosil qilish jarayonida etikaga oid tushunchalar ham tarkib topib boradi. E'tiqod tarbiyasini amalga oshirishda har bir o‘quvchining qiziqish qoidasini, mayli, fikr-o‘yini diqqat bilan o‘rganish talab etiladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya yoshlarning barkamol bo‘lib shakllanishida mustahkam asosdir.

Ta'lim oluvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida o‘ziga xos metodlar, shakllar va vositalar majud bo‘lib, ular ushbu sohadagi faoliyat olib borishning samarsini belgilashda metodik asos axloqiy tarbiyaning quyidagicha metod, shakl va vositalari bor. Ular haqida qisqacha ma'lumot beramiz.

1. Ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar: talabanning muomala madaniyati, talabanning ma'naviy qiyofasiga qo‘yiladigan talablar; talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish – dolzarb vazifa; ma'naviyat tushunchasi; vatan tuyg‘usi – muqaddas tuyg‘u; talabanning tashqi ko‘rinish va uning ichki dunyosi; kitoblar-bilim va ma'naviyat manbai; talabalarda badiiy tafakkurni shakllantirish; mustaqillik nashidalari; yoshlar intellektual salohiyati – kelajak muvaffaqiyati; fidokor yoshlar qanday bo‘lishi kerak? ajdodlar merosi – ma'naviyatimiz sarchashmalari; zamonaviy urf-odatlarda madaniyat va ma'naviyat; Amir Temur yoshlar kamoloti haqida; Vatan qahramonlari va ularning jasoratlari: mustaqil

O‘zbekiston jahon nigohida; O‘zbekistonning tashqi siyosati va uning ustivor yo‘nalishlari;

Yuksak madaniyat va ma'naviyat-jamiyat taraqqiyotining poydevori; tarix-millat ma'naviyatining negizi kabi darslarni uyushtirish. Bunda turli fanlar mavzularini o‘tishda o‘sha fanda tarbiyaga oid lavha va epizodlarni namoyish qilish amalga oshiriladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar alohida ahamiyatga ega. Bunday suhbatlar mazmun jihatdan rang-barang bo‘lishi mumkin.

2. Hikoya.

3. Tushuntirish.

4. Quyidagi mavzu va yo‘nalishlarda ma'ruza va seminarlar tashkil etish va uyushtirish: ma'naviyatimizning buyuk timsollari; jadidchilik harakati namoyondalari: ma'naviy tarbiyada ommaviy axborot vositalarining roli va o‘rni: mehr va muruvvat ulug‘ insoniy qadriyat; axloq kategoriyalari va barkamol avlod tarbiyasi; ezgulik va muqaddas kitoblar; ma'naviy-axloqiy tarbiya-kasbiy barkamollik asosidir va shu kabilar;

5. Namuna ko‘rsatish. Bunda ustoz va murabbiylarning shaxsiy ibrat-namunasi e'tiqodi olinadi hamda “ibrat-namuna hayot dorilfununi” ruknida faoliyatni doimo yuritib turish lozim bo‘ladi va bu jarayonni talabalar o‘qiydigan o‘quv muassasalaridagi ustoz-murabbiylar hayoti va faoliyatidan boshlagan ma'qul;

Ijobiy shaxsiy namuna-talabalar shaxsini shakllantirishda alohida o‘rin egallashi mumkin bo‘lgan metod bo‘lib, shaxsga shaxs orqali ta'sir etishning eng ob'ektiv yo‘li hisoblanadi. Yoshlar balog‘at yoshiga yetib, mustaqil hayotni boshlagunlariga qadar bilish, o‘rganish jarayonida o‘qituvchi tarbiyachiga, ota-onaga qo‘ni-qo‘shniga, doston, drama yoki adabiy asarlar qahramonlariga taqlid qilishadi. Talabalar o‘zlari yoqtiradigan odamga taqlid qilish natijasida o‘zlarini mag‘rur tutadilar, xatti-harakatlari huddi kattalarnikidek tuyuladi. Ya.N.Komenskiyning fikricha , “Bola o‘qishni o‘rganishdan oldin taqlid qilishni

o‘rganadi”. Taqlid qilish orqali yoshlarning o‘z tajribasi qo‘shilib ketib, ularda ya'ni shaxsiy xislatlar paydo bo‘la boshlaydi. Umuman, ta'lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi odobi, a'lo o‘qiydigan talabalarni boshqalarga namuna qilib ko‘rsatish orqali ham talabalarning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko‘rsatish mumkin. Biroq, namuna qilib ko‘rsatuvchi talabaning shaxsini haddan ziyod maqtamaslik va o‘zlarining shaxsiyatiga tegmaslikka alohida e'tibor berish lozim.

6. Kishi ijobiy xislat va fazilatlari insonning oliyanoblighi ekanligiga ishontirish.

Ishontirish tarbiya metodi-talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishdagi asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Ishontirish metodida o‘qituvchi talabalar ongiga, ruhiga, oriyatiga, irodasiga ta'sir etish yo‘li bilan ularning xarakteridagi axloqiy intellektual va boshqa ijobiy xislatlarni shakllantiradi, illatlarni kamaytiradi. Salbiy xislatlardan saqlaydi. Ishontirish shakllanayotgan shaxsga umuminsoniy qadriyatlarga, milliy udum va an'analarga, falsafiy dunyoqarashga asoslanib, milliy mafkuraning asl mohiyatini chuqur tushuntirishga tayanadigan metod hisoblanadi.

7. Bahs-munozaralar uyushtirish. Bunda qutlug‘ sanalarni hisoblash bo‘yicha, allomalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari bo‘yicha, kitob va kitob xosiyati haqida, kasb va hunar haqida hamkorlik – taraqqiyot omili ekanligi xususida; “Zukkolik va bilimdonlik – aql oynasi” ekanligi bo‘yicha; “giyohvandlik, terrorchilik va ularning barkamol avlod tarbiyasiga ta'sirlari to‘g‘risida, ma'naviy yetuk va ma'naviy qashshoq insonlarning jamiyatdagi o‘rni haqida”; “mustaqillik va ilm fan”; “musatqillik va ta'lim-tarbiya”, “mustaqillik va imkoniyat hamda ma'suliyat”; ruknlaridagi jarayonlar; halollik va fidoiylik va h.k. shu kabilar orqali tarbiyaviy tadbirlar amalga oshiriladi hamda bahs-munozarani boshqaruvchi mashg‘ulotning ma'naviy-axloqiy jihati bo‘yicha xulosalarni bayon qiladi. Talaba yoshlar ma'naviy-axloqiy kamolotni ta'minlashda munozaralar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy axloqiy mavzulardagi munozaralar talabalarda muayyan holat, hodisalarga nisbatan to‘g‘ri baho berishga, bu borada fikr yuritishga o‘rgatish hamda e'tiqodni shakllantirishga xizmat qiladi. Munozara

o‘y-fikrlarni tartibga soladi, talabalrni mustaqil fikrlashga, bahs yuritishni tashkil etishga, o‘rtog‘ini tinglashga, o‘z fikrini ilgari surish va uni obrazli tarzda himoya qilishga, ayni chog‘da o‘z holatlarini tan olishga o‘rgatadi.

8. Uchrashuvlar. Bunda quyidagi holatlarda tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazish maqsadga muvofiq: O‘zbekiston Respublikasining madhiyasiga bag‘ishlab “Adolat mezoni – yetuklik belgisi” mavzusida uchrashuv: “14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni” munosabati bilan “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” mavzusidagi O‘zbekiston qurolli kuchlarining yetuk mutaxassislari bilan uchrashuv; “1 mart – giyohvandlik va giyohvand moddalar bilan savdo qilishga qarshi kurash kuni” bilan bog‘liq uchrashuvlar; “1 oktyabr – Xalqaro qariyalar kuni” va “1 oktyabr O‘qituvchilar va murabbiylar kuni” ga oid uchrashuvlar; “5 oktyabr – Xalqaro shifokorlar kuni”ga bog‘liq uchrashuvlar; “24 oktyabr xalqaro BMT kuni”ga oid uchrashuvlar; “4 noyabr YuNeSKO tashkil topgan kun”ga oid uchrashuvlar va hokazo.

9. Matbuot konferensiyasi.

10. Tanlovlar o‘tkazish. Bunda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid tadbirlar amalga oshiriladi va quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi: krossvord yechish bo‘yicha; rebus tuzish bo‘yicha; boshqotirmalar tayyorlash bo‘yicha; “Tafakkurimizni sinab ko‘ring” va “Intellektual ring” o‘yinlari bo‘yicha; “Bilimlar o‘chog‘i” va “Oltin toj” o‘yinlari asosida; “Shaxs kamoloti” va “Yangi fikr” to‘garaklari mashg‘ulotlari asosida va h.k.

11. Sanaviy darslar o‘tkazish.

12. Matbuot materiallari.

13. O‘quv va yordamchi adabiyotlar bilan ishlash.

Ma'naviy axloqiy tarbiyaga oid multimediali tarbiya texnologiyalari. Bunda milliy g‘oyani o‘rganishga tayyorlangan axborotlashtirilgan ta'lim texnologiyasi, milliy-ma'naviy qadriyatlarni o‘rganishga oid “Intellekt” nomli kompyuterli tizim, ma'naviy axloqiy tarbiya berishni optimallashtirishga oid “Ahloq” mavzusidagi axborotlashtirilgan intellektual tizim va shu kabilarga e'tibor qaratiladi.

II.BOB. TALABA YOSHLARDA MA'NAVIYATNI SHAKLLANTIRISHNING SHAKL VA USULLARI.

II.1. Prezidentimizning “Yuksak-ma’naviyat engilmas kuch” asari yoshlar ma’naviyatini shakllantirishining bosh me’zoni sifatida.

Prezident I.A.Karimovning ushbu asarining **“Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar”** nomli bo‘limida bugungi kunda ma'naviyatimizga ta'sir o‘tkazadigan barcha omil va mezonlar chuqur tahlil qilinib, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmasligini alohida ta'kidlaydi va **ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar** bu boradagi eng muhim omillar sifatida ko‘rsatiladi.

Kitobda ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimiz ekani g‘urur bilan ta'kidlanadi. Asarda bir muqaddas xazinaning o‘rni va ahamiyati haqida batafsil fikr yuritiladi. Undagi yaxshilikka chorlovchi tamoyilarni hozirgi zamon uchun ham behad ibratli saboq manbai deya ta'riflaydi.

Asarda **xalq og‘zaki ijodining** noyob durdonasi bo‘lgan «Alpomish» dostoni qahramonlik qo‘shig‘i sifatida baholanadi. Xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo‘lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh baytidir, deb urg‘u beradi muallif. Bu doston bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq berishini, ma'naviy tarbiya uchun ulkan ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

Kitobda xalqimiz uchun eng qadimiy, milliy bayram - **Navro‘z ayyomi** hayot abadiyligi, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz sahovatining, ko‘p ming yillik milliy qiyofamiz, olijanob urf-odatlarimizning betakror ifodasi deb ta'riflanadi. Uni

xalqimizga mansub odamiylik, mehr-oqibat, muruvvat, ezgulik va yana bir insonlarga xos yuksak xususiyatlarni shakllantiruvchi omil sifatida faxr bilan tilga olinadi.

Muallif asarda ma'naviyatning yuksalishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan ulkan mezon – **muqaddas dinimiz** haqida ham alohida to'xtalgan. Islom dinini odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimi tarzida yuksak baholaydi. Shu bilan birga, bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib, uning xayrixoh va tarafdorlari ko'payib borayotganiga e'tibor qaratadi. Shu ma'noda, asarda xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, ruhiy poklanish, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashda uning ta'sirini saqlash maqsadida muqaddas islom dinimizni turli xil g'arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan himoya qilish, asrab-avaylash, asl mohiyatini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga to'g'ri tushuntirish, shu bilan birgalikda yana islom madaniyatining ezgu nimalarini keng targ'ib etish vazifalari bayon etiladi.

Asarda buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyati rivojiga qo'shgan betakror hissalarini to'g'risida so'z yuritilib, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida «muhaddislar sultoni» deb nom bilan ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy to'g'risida, uning «Al-jome' as-sahih» kitobining ahamiyati haqida yuksak ehtirom bilan so'z yuritiladi. Shuningdek, Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy, Imom Moturidiy kabi ulug' zotlarning ulkan aql-zakovati va matonati haqida ham batafsil ma'lumotlar keltiriladi.

Asarda O'zbekiston zaminida yetishib chiqqan qomusiy olimlarimizning **bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari haqida**, xususan, Muhammad Muso Xorazmiy faoliyatining umuminsoniy taraqqiyot rivojiga ulkan ta'siri, Ahmad Farg'oniyning «Astronomiya asoslari haqida kitob»ining ilmiy ahamiyati, Abu Rayhon Beruniyning ilmiy jasorati, Ibn Sinoning buyuk asarlari, Mahmud Zamahshariyning olamshumul shuhrati to'g'risida ham g'urur bilan so'zlanadi.

Unda buyuk bobolarimizning ma'naviy olami xususida fikr yuritilib, Sohibqiron Amir Temur haqida alohida to'xtaladi, uning aql-idrok, adolat va yuksak ma'naviyat bilan yo'g'rilgan faoliyati ibrat tariqasida keltiriladi, va yana bir allomaning ishlarini buyuk ma'naviy jasorat timsoli sifatida e'tirof etiladi.

Asarda o'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan biri – Alisher Navoiy haqida faxr bilan so'z yuritilib. xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etgan bu ulug' zotni I.A.Karimov **avliyolarning avliyosi, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoirlarning sultoni deb ta'riflaydi.**

Kitobda chorizm mustamlakasi davrida ma'rifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan jadid ma'rifatparvarlari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab fidoyi insonlarning faoliyati haqqoniy tarzda ochib berilgan. Yaqin davrda yashab ijod qilgan Qori Niyoziy va Toshmuhammad Sarimsoqov, Habib Abdullaev va Sa'di Sirojiddinov, Obid Sodiqov va Sobir Yunusov, Yahyo G'ulomov va Bo'riboy Ahmedov, Oybek va G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va Zulfiya, Said Ahmad va Ozod Sharafiddinov, Lutfixonim Sarimsoqova va Halima Nosirova, Olim Xo'jaev, Razzoq Hamroev va boshqa ko'plab nomlari dunyoga tanilgan mashhur ilm-fan, adabiyot va madaniyat arboblari faoliyati va hayoti hurmat bilan esga olinadi.

Asarda millatimiz ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda **bir jamoaning o'rni va ta'siri beqiyos ekani ta'kidlanib, u inson** dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar - yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori shakllanadigan bir makon deb baholanadi.

Asarda ma'naviy hayotimizni yuksaltirishda **mahallaning roli va ta'siri** katta ekani qayd etilib, yurtimizdagi ma'naviy iqlim va vaziyatning o'ziga xos ko'zgusi bo'lgan mahallalarga ma'naviy-ma'rifiy olamimizni yuksaltirishda yanada ko'proq imkoniyat berish zarurligi qayd etiladi. Shuningdek, ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil – **ta'lim-tarbiya tizimiga alohida**

e'tibor qaratilib, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqish bilan bog'liq jarayon tahlil qilinadi. Muallif uzoq yillar mobaynida bu sohada talay muammolar yig'ilib qolganini, o'zi shaxsan ushbu dastur loyihasi ustida sakkiz oy mobaynida ishlash jarayonida bunga amin bo'lganini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham bu o'ta og'ir va mas'uliyatli, ammo hal qilishni aslo paysalga solib bo'lmaydigan ishni qadam-baqadam, va yana bir tizim bilan bajarish uchun astoydil ish olib borilganligini ta'kidlaydi.

Shu kungacha **millat ma'naviyatini shakllantiradigan asosiy mezonlar** biror kitobda aniq belgilab berilmagan edi. Ayni shu vazifa Islom Karimovning **“Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”** asarida birinchi marta aniq va mukammal asoslab berildi.

Ma'naviyat hodisasi asosan ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: **shaxs ma'naviyati** va **millat ma'naviyati**. Agarchi, tarixan va nazariy jihatdan **millat ma'naviyati**, tom ma'noda olganda, ushbu millatga qaysidir bir tarzda aloqador hisoblanuvchi o'tmish, bugun va kelajakdagi barcha shaxslar ma'naviyatining majmuidan iborat bo'lsa-da, voqyelikda har bir shaxs ma'naviyati **millat ma'naviyatidan** oziqlanadi, uning asosida kamol topadi. Prezidentning g'oyatda hikmatli iborasi bilan aytganda, har bir inson *“o'zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o'ylab, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan”*.

Yurtboshimiz asarida islom ma'rifatining uzviy qismi bo'lmish tasavvuf irfonining buyuk namoyandalari Abduxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshbandlarning muborak siymolariga chuqur ehtirom izhor qilinib, ularning millatimiz ma'naviyatini shakllantirishdagi umrboqiy hissalarini tilga olinadi. Agar biz bu e'tiroflarni I.Karimovning yana Ahmad Yassaviy, “shayxi valitarosh” deb nom taratgan Najmiddin Kubro kabi buyuk ma'naviyat pirlari haqida turli sabablar bilan bildirgan mulohazalari bilan qiyoslaydigan bo'lsak, umuman Prezidentimizning tasavvuf ta'limotiga nisbatan bo'lgan ulkan e'tiborlari aniq-ravshan bo'ladi. Nafaqat milliy ma'naviyatimiz takomilida, balki umumbashariy miqyosda ma'naviy qadriyatlar ustivorligini ta'minlashda tasavvuf irfonining tarixiy xizmati allaqachon o'z isbotini topgan. Asarda buyuk murshidlar ishlab

chiqqan irfoniy takomilning 4 bosqichi shaxs ma'naviyatini shakillantirishda ulkan hissa qo'shganligi ta'kidlanadi. To'rt bosqichning 3 tasi: shariat, tariqat, ma'rifatdir.

Asarda agar Forobiy, Biruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib singari islom ma'rifatchiligi namoyandalarining yosh avlod tarbiyasiga oid qarashlarida aqlga, bilimga tayanish ustunlik qilgan bo'lsa, tasavvuf ta'limoti ko'ngilni poklash, ilm va amal uyg'unligi, umumbashariy mehr, har ishda niyat xolisligi masalalariga e'tibor qaratganligi yoziladi. G'azzoliydan boshlab "inson vujudida ko'ngil va aqlga mansab berib qarash yetakchi o'ringa o'ta boshladi va Alisher Navoiy ijodida bu tamoyil o'zining mukammal ifodasini topdi, deb ta'kidlaydi, muallif.

Kitobda xalqimizning o'tmishda islom ilmlari rivojiga qo'shgan ulkan hissalarini jahon tan olgan ulug' allomalari: **Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy**, buyuk tasavvuf pirlari **Abduxoliq G'ijduvoniy** va **Bahouddin Naqshband** kabi tabarruk siymolarning millatimiz ma'naviy takomiliga qo'shgan xizmatlari bilan bir qatorda, matematika va astronomiya singari aniq fanlar; meditsina, farmakologiya, mineralogiya kabi tabiiy fanlar; logika, filologiya va jamiyatshunoslik fanlari sohalarida jahon ilmi rivojiga barakali ta'sir ko'rsatgan qomusiy allomalar **Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamahshariy, Mirzo Ulug'bek** kabi mo'tabar zotlarning har biri xususida alohida to'xtalib, ularning nafaqat milliy ma'naviyatimiz, balki bashariyat ma'naviy takomiliga ko'rsatgan ta'sirlarini birma-bir qayd etib o'tilishi bu soha olimlari uchun muhim nazariy bir yo'nalishdagi namuna sifatida qabul qilishga arziydi, deb ta'kidlanadi.

Prezident kitobida *"tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan"* Sohibqiron Amir Temurning mumtoz siymosi, uning nabirasi olim va hukmdor Mirzo Ulug'bekning ilmiy jasorati chuqur ehtirom bilan yodga olinadi. kitob Muallif o'z hissiyotlarini shunday bayon qiladi: *"Shaxsan men "Temir tuzuklari"ni har gal o'qir ekanman, xuddiki o'zimga qandaydir ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman..."*

Ma'lumki, o'z vaqtida 1991 yil Alisher Navoiy yili deb e'lon qilingan va o'sha yil to'kin kuzning birinchi oyida o'zbek milliy ma'naviyatining quyoshiga bag'ishlanadigan asosiy tantana va tadbirlarni o'tkazish belgilangan edi. Ollahning inoyatini qarang-ki, xuddi ushbu tantanalar boshlanishi oldidan mamlakatimiz siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritdi va sentyabrning birinchi kuni Mustaqillik bayramiga aylandi. Prezidentimiz bir nom bilan atagan Mir Alisher Navoiyning qutlug' to'yi, shunday qilib, *O'zbekistonimiz hayotiga alohida fayz, tarovat baxsh etdi, yurtimiz, elimiz tarixida qutlug' keldi, unutilmas sana bo'lib qoldi.*

Prezidentimiz Alisher Navoiy siymosi va badiiy-ma'naviy merosiga cheksiz ehtirom bildirib: *“O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan yana biri – bu Alisher Navoiy bobomizdir... Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir,* deb yozadi. Muallif buyuk ajdodimizning bebaho merosidan “xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz” deb qat'iy ishonch bildiradi. Prezident asarda A.Navoiy haqida *“Agar bu ulug' zotni mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”*. Asarda XX asr boshlarida el-yurt manfaati uchun jonlarini tikkan ma'rifatparvarlarimiz Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Abdurrauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab fidoiy insonlarning ma'naviy jasoratlari, ulardan keyin xalq orasida nom qozongan Qori Niyoziy, Toshmuhammad Sarimsoqov, Habib Abdullaev, Sa'di Sirojiddinov, Obid Sodiqov, Yahyo G'ulomov, Ozod Sharafiddinov kabi ilm-fan arboblari, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Zulfiya, Said Ahmad singari shoir va adiblar, Lutfixonim Sarimsoqova, Halima Nosirova, Olim Xo'jaev, Razzoq Hamroev va boshqa atoqli san'atkorlarning xizmatlari qanday asosda eslab o'tiladi?

Shu tariqa yosh avlod ma'naviyatini shakllantiradigan asosiy mezonlar, yoki ma'naviy hayot mezonlari deganda nimani tushunish kerakligi haqida asarida aniq ko'rsatmalar berilgan. **“Mezon” tarozu** degani, ya'ni aniq o'lchov, meyor, yevropa terminologiyasida “kriteriy”. Biz yoshlarning ma'naviy tarbiyasida nimalarga tayanishimiz kerak, yoshlarga kimlarni ibrat qilib ko'rsatishimiz lozim bo'ladi, qaysi o'lchov, qanday meyorlarni asos qilib olishimiz lozimligi asarda aniq ko'rsatib berilgan.

Prezident o'z kitobida bu haqiqatlar, va tuyg'ularni yosh avlod ongiga singdirishning **uch tabarruk makoniga –oila, mahalla, va ta'lim-tarbiya tizimiga** alohida e'tibor qaratadi. Agar shu uch makonda ma'naviy muhit ko'ngildagidek bo'lsa, hamma ish ko'ngildagidek bo'ladi, agar ular tanazzulga qarab ketsa, butun jamiyat halokatga yuz tutadi. Afsuski, muayyan sabablarga ko'ra bugungi kunda har uch makonda ham muammolar ancha-muncha yig'ilib qolgan, deb ta'kidlaydi. Kitobda oila ma'naviy muhitiga alohida e'tibor ajratilgan. Ba'zi ota-onalarning o'sib kelayotgan yosh farzandlarining qiziqish va intilishlariga, ularning “ongu tafakkurida har kuni bir o'zgarish yuz berib, ko'zida yangi-yangi savollar paydo bo'layotganiga” jiddiy ahamiyat bermasligi, boz ustiga ba'zi ota-onalar bola oldida o'zini tutishni bilmay, axloq-odob bobida farzandlariga o'rnak bo'lish o'rniga ahli oilasiga qo'pol muomala bilan farzandlari ruhiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, hatto ba'zi oilalarda bolaning ma'naviy olamida og'ir asoratlar qoldirishi mumkin bo'lgan o'zgaralar baxtini ko'rolmaslik, fisqu fasod, ig'vo muhiti ham mavjudligi taassuf bilan qayd etiladi va unda **“Biz o'z farzandlarimizning baxtu saodatini, iqbol va kamolini ko'rishni istar ekanmiz, nafaqat oiladagi, balki mahalla-kuydagi odamlarning xatti-harakati ham bolaning shakllanib kelayotgan sof qalbi va ongiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida doimo o'ylashimiz, bu masalada zimmamizda qanday ulkan mas'uliyat borligini unutmasligimiz zarur,”** deb xulosa qilinadi. Muallif har qaysi xonadondagi ma'naviy iqlimni yaxshilash haqida bosh qotirar ekan, yana badiiy so'z qudratiga murojaat qilishni maslahat beradi va bir mumtoz adibimizning bir asarida

tasvirlangan o'zbek oilalariga xos odob va axloq namunalarini ibrat qilib ko'rsatadi.

Mahalla – insonni jamiyat bilan uyg'unlashtiradigan hamda shu ruhda tarbiyalaydigan eng katta sahovatli go'sha va beqiyos Vatan. Muallif xalqimizning “Mahalla – ham ota, ham ona” degan hikmatli iborasini keltirib, bu so'zlarni millatimiz uchun “hayotiy haqiqatning ifodasi” deb ta'riflaydi va mahalla - tarbiya maktabi sifatidagi vazifasiga alohida urg'u beradi.

Kitobda mustaqillik davrida oila ma'naviy muhitini yaxshilash, azaliy qadriyatimiz bo'lgan mahallaning ijtimoiy maqomini ko'tarish, ta'lim-tarbiya sohasida o'tkazilayotgan tub islohotlar haqida eslab o'tish bilan bir qatorda bu sohalarning bugungi dolzarb muamolari haqida batafsil mulohazalar bildiriladi. “Shuni unutmaslik kerakki, -deb yozadi Prezident, - kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi.” Shunday ekan, “bu sohada yuzaki, rasmiy yondoshuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi.”

Asarda ko'rsatilishicha, ta'lim-tarbiya inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovidir. Ta'lim–tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifasi komil inson tarbiyasidir. Ammo qin o'tmishda bizda bolaga tabiiy va aniq fanlar bo'yicha bilim berish asosiy maqsadga aylanib, bolaning ma'naviy tarbiyasi o'z holiga tashlab qo'yilgan, ko'pincha faqat siyosiy-tashkiliy tadbirbozlikka aylanib ketgan edi. Davlatimiz va hukumatimizning “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturi” va boshqa ta'lim jarayoni mazmunini tubdan takomillashtirishga xizmat qiluvchi islohotlari tufayli bu sohaga yangicha e'tibor qaratildi. Ammo hanuz bu sohada hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar birtalay ekanligi kitobda batafsil bayon etilgan.

Asarda hali bu yo'lda qiladigan ishlarning ko'pligi, ammo hozirdanoq bu sa'y-harakatlarning nimalari borgan sari yorqinroq ko'zga tashlanib borayotganligi ham mamnuniyat bilan e'tirof etilgan?

II.2. Yoshlar ma'naviy tarbiyasiga tizimli yondashuv.

Xalqimizning buyuk ajdodlaridan meros qolgan qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar nasl-nasabimiz va qonimizga singib ketgan. Bunday buyuk merosimiz butun dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan. Ana shu qutlug' merosga munosib yashash, uni yanada boyitish, rivojlantirish va yoshlar ongiga singdirish masalasida to'xtalib Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida (bundan buyon asarda) "...Agarki mana shu muqaddas zaminimizda tavallud topib voyaga yetgan, o'z faoliyati bilan nafaqat tarixda, ayni vaqtda bashariyatning bugungi taraqqiyot sahifalarida ham o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir va allomalarimiz, aziz-avliyolarimizni ta'riflashda davom etadigan bo'lsak, o'ylaymanki bu borada uzoq gapirish mumkin. Bizning o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz esa, bunday ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini to'liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma'rifat, ilmu fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o'zida umumlashtirgan xalqimizning ma'naviy olami naqadar boy va rangbarang ekanligini isbotlab berishdan iboratdir.

Bunday noyob va bebaho boyligni har tomonlama chuqur o'rganish uning ma'no-mazmunini farzandlarimizga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda ziyolilarimiz, butun jamoatchiligimiz uchun ham qarz ham farz bo'lishi shart, deb hisoblayman. Nega deganda o'zimiz bugun shu yurtda yashayotgan vatanparvar insonlar bu vazifani o'z zim-mamizga olmasak, chetdan kelib hych nim, hych qachon bu ishni qilib bermaydi, - deb ta'kidlaganlar.

Bundan tashqari ta'kidlash joizki, asarda qadimiy tariximizni, boy milliy ma'naviya-timizni keng ommaga, yoshlar ongiga va shuuriga singdirishda bosqichma-bosqich amalga oshirish kerak bo'lgan o'ta muhim vazifalar aniq va rav-shan ko'rsatib berilgan.

Bugungi kunda ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat yo'nalishida Respublikamizda olib borilayotgan keng qamrovli ishlarni "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida tizimli tarzda olib borish maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan. Bu haqda

asarda “ Ma'naviyat haqida har qancha da'vatlar, muhim nazariy fikrlar bildirilmasin, agar ularni jamiyat ongiga singdirish uchun doimiy ish olib bormasak, bu boradagi faoliyatimizni har tomonlama puxta o‘ylangan tizimli ravishda tashkil etmasak, tabiiyki, biz ko‘zlagan maqsadga erisha olmaymiz, ya'ni inson qalbiga yo‘l topa olmaymiz ”,-deb ta'kidlangan.

Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda ma'naviyat, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'alarimizni yoritishga bag‘ishlangan ilmiy-uslubiy ishlar, asosan, xususiy hollarda ya'ni, bir allomaning yoki boshqa bir aziz - avliyolarimizning hayoti, ijodi va ilmiy kashfiyotlari haqida bo‘lib, unda biror-bir pedagogik metod yoki usullardan foydalanib, ularni targ‘ibot qilish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Ayni vaqtda Respublikamizda ma'naviy va ma'rifiy yo‘nalishda olib borilayotgan nazariy va amaliy ishlarda buyuk mutaffakirlarimiz, allomalarimiz, aziz - avliyolarimizning hayoti, ijodi va buyuk kashfiyotlaridan ma'naviy olamga, milliy qadriyatlarga, an'analarga va urf-odatlarga boy materiallarni, mustaqillik yillarida erishilgan muvaffaqiyatlarimiz bilan uyg‘unlashtirilgan holda tizimli tarzda amalga oshirish masalasi ko‘rib chiqilmagan.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, buyuk mutafakkirlarimiz, allomalari-miz, aziz-avliyolarimizning hayoti, ijodi va buyuk kashfiyotlaridan olingan ma'naviyat olamiga, milliy qadriyatlarga, an'analarga va urf-odatlarga boy materiallarni mustaqillik yillarida erishilgan muvaffaqiyatlarimiz bilan uyg‘unlashtirilgan holda tizimli yondashuv asosida hayotga tatbiq etish masalasi dolzarbdir.

Asarda ma'naviy yuksalish sari olib boriladigan nazariy va amaliy ishlar ko‘lami 5 yoshgacha bo‘lgan go‘daklardan boshlab ta'lim muassasalari talaba-o‘quvchilarini, oila va mahallada istiqomat qilayotgan fuqarolarni qamrab olganligini ko‘ramiz. Bu esa farzand dunyoga kelgandan boshlab uning ulg‘ayib borish davri mobaynida turli bo‘ginlarda (ta'lim muassalarida, oilada va mahallada) ma'naviy dunyoqarashi shakllanib borishini ko‘rsatadi.

Shuning bilan bir qatorda ta'kidlash joizki, asarda “....Ko‘p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson o‘z umri davomida oladigan barcha

informativligi 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olgan ekan" deb e'tirof etilgan. Shuning bilan bir qatorda asarda tariximizdagi ibratli qahramonlar, xalqimizning boy va betakror estetik dunyosini aks ettiradigan personajlar va milliy qadriyatlarimiz asos qilib olingan o'yinchoq va qo'g'irchoqlarni 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ishlab chiqilishi asoslab berilgan. 5 yoshgacha bo'lgan bolalarni milliy qadriyatlarimiz asos qilib olingan o'yinchoq va qo'g'irchoqlar asosida ma'naviy dunyoqarashi shakllana boshlasa, 5-7 yoshgacha bo'lgan bolalarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishda o'yinchoq va qo'g'irchoqlarning mazmun-mohiyati ochib beradigan ma'lumotlarni soddalashtirilgan va hajmi uncha katta bo'lmagan materiallar ko'rinishida taqdim etish maqsadga, muvofiq. Bolalarning keyingi davrlarda dunyoqarashining shakllana borishi ta'lim muassalarida kechadi, shu bois ta'lim muassalarida bu borada olib boriladigan vazifalarga to'xtalamiz.

Ta'lim muassalarida bilim olib ulg'ayotgan bolalarimizni buyuk mutafakkirlarimiz, allomalarimiz, aziz avliyolarimizning hayoti, ijodi va buyuk kashfiyotlaridan olingan ma'naviyat olami, milliy qadriyatlarimiz boy va betakror tariximiz, an'analalarimiz, urf-odatlarimiz asos qilib olingan materiallar negizida ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish masalasiga e'tiborni qaratamiz.

Sharqona ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti moziygacha borib yetgan ildizlar orqali oziqlanadi. Uning tarbiya g'oyalari o'tgan har bir tarixiy davr va bosqichlar davomida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan holda tomir otgan. Bu haqda to'xtalib Prezidentimiz asarda "...Ma'lumki ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu-ma'rifat ta'lim va tarbiyaning inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Albatta, ta'lim-tarbiya ong mahsuli, ayni vaqtda ong darajasi uning rivojini ham belgilaydigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va uyi asosida ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda xalqimizning ertangi

kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim- tarbiya olishiga bogliq”,-deb ta’kidlaganlar.

Aynan ana shu fikr-mulohazalarga asoslanib, tarixiy shaxslarimizning eng buyuk namoyandalari timsolida ma’rifat, ilm-fan, madaniyat kabi sohalarning barchasini o‘zida umumlashtirgan xalqimizning ma’naviy olamini aks ettiruvchi ma’lumotlarni, mustaqillik yillarida erishilgan muvaffaqiyatlarimiz bilan uyg‘unlashtirilgan ko‘rinishdagi materiallarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun (1-4 sinf) moslashtirilgan holda berilishi ularning ma’naviy dunyoqarashini kengaytirishga olib keladi.

Xuddi shunday boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan ma’lumotlarni mantiqiy davom ettirib, ularni yuqori sinf o‘quvchilari uchun moslashtirish lozim va yuqori sinf o‘quvchilari uchun berilayotgan ma’lumotlarni davom ettirib, ularni akademik litsey va kasb- hunar kollejlari talabalariga mos tarzda taqdim etish maqsadga muvofiq.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari talabalariga moslashtirilgan ma’lumotlarni oliy o‘quv yurti talabalarini uchun ularning yoshini va qobiliyatini e’tiborga olgan holda yaratish lozim.

Bu o‘rinda oila va mahalla fuqarolari alohida o‘rin tutadi. Bu haqda asarda ”...Ma’naviy hayotimizni yuksaltirish haqida gapirganda, mahallaning roli va ta’siri xususida to‘xtalish albatta o‘rinlidir. Ma’lumki, azaldan o‘zbek mahallalari chinaknam milliy qadriyatlar maskani bo‘lib keladi. O‘zaro muvohira, ahillik va totuvlik,

ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to‘y-tomosha, hashar va ma’rakalarni iochilik bilan bamaslihat o‘tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo‘lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an’analar, avvalombor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan”,-deb ta’kidlangan. Shu bois mahallada va oilada ham yuqorida bayon qilingan fikrlarni mantiqiy davom ettirish mumkin. Oila va mahalla fuqarolari uchun tanlanadigan ma’lumotlarni yuqorida keltirilgan barcha bo‘g‘inlardagi materiallar asosida tanlash maqsadga muvofiq. Shuni ta’kidlash joizki, oila va mahalla

fuqarolari uchun bu ma'lumotlar yetarli bo'lmashligi mumkin. U holda bu toifadagi insonlar uchun qo'shimcha materiallar to'planib, ular oila va mahalla fuqarolariga moslashtiriladi.

Ushbu fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, yuqorida keltirilgan bo'g'inlar bir-biri bilan uzluksiz va uzviy ravishda botangan tizim elementlarini tashkil qiladi. Quyida ushbu tizimning sxemali ko'rinishi tasvirlangan (1- rasm).


Endi tizim doirasida olib boriladigan nazariy va amaliy ishlar borasida to'xtalamiz.

Nazariy ishlar ko'lami.

Tizimning nazariy asosi "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida keltirilgan quyidagi fikrlarga tayangan holda ishlab chiqilgan. "... Xalq millat o'z milliy ma'naviyati- ni yillar davomida yuksaltirib, boyitib boradi. Chunki ma'naviyat qotib qolgan aqidalar yigindisi emas, aksincha, doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo'lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma'naviy hayot oldiga qo'yiladigan talablar ham mutassil paydo bo'laveradi",-deb bildirilgan fikrlar, tizimga qo'yilgan talablarni asosini tashkil qiladi.

Tizimga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Tizimning ochiqligi.
2. Tizimda jamiyatning rivojlanib borishi tufayli vujudga kelgan yangi elementlarni kiritish va eskirgan elementlarni chiqarib tashlash imkoniyatining mavjudligi.
3. Tizimga yangi elementlarni kiritish va eskirgan elementlarni chiqarib tashlash tizimning faoliyatiga salbiy ta'sir etmasligi. ya'ni uning yaxlitligi ta'minlanganligi.
4. Tizimda olib borilayotgan nazariy va amaliy ishlar tizimli yondashuv asosida olib boriladi.



1-rasm. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asari asosida ma'naviy dunyoqarashni shakllantirish tizimi.

Tizimning ochiqliligi jamiyatning rivojlanib borish bosqichlarida ma'naviy dunyoqarashning shakllantirilishiga qarab moslashib borishni ta'minlaydi. Bu

degan soʻz tizimning elementlari doimiy ravishda toʻldirilib, oʻzgartirilib boriladi. Tizimga yangi elementlarni kiritish va eskirgan elementlarni chiqarib tashlash imkoniyatining mavjudligi uning faoliyatiga salbiy taʼsir etmasligi lozim. Tizimning hamma boʻgʻinilarida bajariladigan nazariy va amaliy ishlar bir- biri bilan uzluksiz va uzviy bogʻlangan boʻlishi maqsadga muvofiq.

Bundan buyon "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asari asosida olib borilayotgan nazariy va amaliy ishlar tizimli yondashuvga qoʻyilgan talablar boʻyicha bajariladi.

Tizimning nazariy ishlar sirasiga buyuk mutafakkir, allomalarimiz, aziz avliyolarimiz hayoti va ijodi hamda ularning ilmiy kashfiyotlari qamrab olingan ma'naviyatimizga boy ma'lumotlarni mustaqillik yillarida erishilgan muvaffaqiyatlarimiz bilan uygʻunlashtirilgan holdagi ma'lumotlarni aks ettiradigan ma'lumotlar bazasini yaratish kiradi. Ma'lumotlar bazasini yaratish uchun ijodiy jamoa tashkil etish maqsadga muvofiq. Ijodiy jamoa tarkibiga Respublikamizning tajribali pedagoglari bilan bir qatorda, psixologiya, pedagogika, axborot texnologiyalari, tarix, falsafa, adabiyot, huquqshunoslik, san'at va me'morchilik sohasida ilmiy tadqiqot olib borayotgan yetuk olimlar jalb qilinishi lozim. Ijodiy jamoaning asosiy vazifasi tizimning hamma boʻgʻinlariga mos tushadigan ma'lumotlar bazasini yaratishdan iborat.

Ijodiy jamoa tomonidan yaratilgan ma'lumotlar bazasidan tizimning har bir boʻgʻiniga mos keladigan ma'lumotlarni ajratib olish uchun ijodiy guruh tashkil qilinadi. Ijodiy guruh tarkibiga tizimning boʻgʻinlariga tegishli jamoa boʻyicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan yetuk olimlar va tajribali mutaxassislar jalb qilinadi. Ma'lumotlar bazasida toʻplangan materiallar asosida lavhalar tayyorlash ishlari yulga qoʻyiladi. Ijodiy guruh zimmasiga tizimning boʻgʻinlariga mos ma'lumotlarni lavhalar koʻrinishida aks ettirish bilan bir qatorda ularning matn, tasvirlar, turfa ranglar bilan boyitilishini eʼtiborga olish ham yuklatiladi. Ijodiy guruh tomonidan yaratilayotgan lavhalar bir tomondan oddiy, ikkinchi tomondan oson tushuniladigan va har bir boʻgʻindagi jamoaning yoshini, qobiliyatini, pedagogik

va psixologik jihatlarini e'tiborga olib yaratilishi maqsadga muvofiq. Lavhalarda aks ettirilgan ma'lumotlar dastlabki bo'g'indan boshlab bir-biri bilan uzluksiz va uzviy bog'langan bo'lishiga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi.

Tizim doirasida olib borilayotgan nazariy ishlarning muhim jihati shundan iboratki, u o'z navbatida bir qator fan yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo qiladi. Bunday fan yo'nalishlariga pedagogika, psixologiya, tarix, falsafa, adabiyot va san'at, huquqshunoslik, me'morchilik, musiqa va boshqa yo'nalishlarni kiritish mumkin. Ushbu fan yo'nalishlari bo'yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlariga xalqimizning ma'naviy olamini aks ettiruvchi ma'lumotlarni qanday ko'rinishda va qancha hajmda hamda ularning mazmun-mohiyatini ochib berishda ko'llaniladigan pedagogik metod, usullari va psixologik jihatlarini tadqiq qilish kabi ilmiy-uslubiy ishlar kiradi.

Ilmiy tadqiqot natijalari asosida 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun yaratilgan o'yinchoq va qo'g'irchoqlarning yangi modellarini ishlab chiqish tavsiya etiladi va har bir bo'g'inga tegishli lavhalar o'zgartirilib, yangilanib, to'ldirilib, jamiyat taraqqiyotiga moslashtirilib boriladi.

Ilmiy tadqiqot ishlari quyidagi yo'nalishlarda olib borish tavsiya etiladi:

- 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun yaratilayotgan o'yinchoq va qo'g'irchoqlarning pedagogik va psixologik jihatlarini;
- 5-7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun yaratilayotgan lavhalarning pedagogik va psixologik jihatlarini;
- boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilayotgan lavhalarning pedagogik, psixologik, tarixiy va falsafiy jihatlarini;
- yuqori sinf o'quvchilari uchun yaratilayotgan lavhalarning pedagogik, psixologik, tarixiy, huquqiy va falsafiy jihatlarini;
- akademik litsey va kasb-hunar kollejlari talabalari uchun yaratilayotgan lavhalarning pedagogik, psixologik, tarixiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va falsafiy jihatlarini;
- oliy ta'lim muassalari talabalari uchun yaratilayotgan lavhalarning pedagogik, psixologik, tarix, adabiyot, sa'nat, huquq, falsafiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarini;

- mahalla va oilada istiqomat qilayotgan fuqarolar uchun yaratilayotgan lavhalarining pedagogik, psixologik, tarix, adabiyot, san'at, huquq, falsafa, ijtimoiy va iqtisodiy, jihatlari.

Bundan tashqari fan yo'nalishlari bo'yicha olib borilishi kerak bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlari ijodiy jamoa va ijodiy guruh tomonidan aniqlanadi.

Shuning bilan bir qatorda ta'kidlash joizki, bugungi kunga qadar Respublikamizda ma'naviy-ma'rifiy sohalarda olib borilgan va borilayotgan ishlar ko'lamini sarhisob qilish, bu borada yaratilgan ishlanmalarni va tayyor materiallarni tizimli yondashuv texnologiyasi doirasida qamrab olish uchun hamda istiqbolda yaratilishi kutilayotgan ishlanmalarni aniqlash maqsadida "Ma'naviy yuksalishning tizimli yondashuv texnologiyasi" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumanini o'tkazish maqsadga muvofiq.

Endi tizim doirasida olib borilayotgan amaliy ishlar xususida to'xtalamiz.

AMALIY ISHLAR KO'LAMI

Buyuk mutafakkir va allomalarimiz, aziz avliyolarimizni eng buyuk namoyandalari timsolida ma'rifat, ilm-fan, madaniyat kabi sohalarning barchasini o'zida umumlashtirgan xalqimizning ma'naviy olamini aks ettiruvchi ma'lumotlarni mustaqillik yillarida erishilgan muvaffaqiyatlarimiz bilan uyg'unlashtirilgan holdagi materiallarini lavhalar ko'rinishida aks ettirish yaxshi samara beradi. Buning boisi lavhalarga turli rasmlar, tasvirlar kiritish imoniyatidan tashqari ularga videotasvirlar, videokliplar, hujjatli filmlar, multiplikatsiya va shunga o'xshash boshqa elementlarini ham kiritish imkoniyati mavjudki, ular yordamida lavhalarda aks ettirilgan ma'lumotlarning mazmun-mohiyatini ochib berishga zamin yaratiladi. Bu lavhalarni axborot va pedagogik texnologiyalar asosida yanada boyitish mumkin.

Bu to'g'rida Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas-kuch" asarida "... Jahon miqyosida voqyealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan, Internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga tayyor bo'lish, matbuot, televidenie va radio sohasida xizmat qilishga o'zini bag'ishlagan, yetuk mutaxassis bo'lishga ahd qilgan

va bu sohada o'z kelajagini ko'rmoqchi bo'lgan ommaviy axborot vositalari xodimlarining faoliyat mezoniga aylanishi zarurligini barchamiz yaxshi anglaymiz",-deb alohida ta'kidlab o'tganlar.

Ana shu fikrlarga tayangan holda matn va turli tasvirlar, videokliplar, videotasvirlar ko'rinishida berilayotgan lavhalarni axborot-kommunikatsion va pedagogik texnologiyalar asosida yanada boyitish va ularning mazmun-mohiyatini to'liq ochib berish masalasiga e'tiborni qaratamiz.

Tajribadan ma'lumki, matn ko'rinishida berilayotgan lavhalarni o'zlashtirish darajasi 30 foizdan oshmaydi. Matn ko'rinishidagi lavhalarni zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarning vositalari asosida ularni o'zlashtirish darajasini yanada yuqori darajaga ko'tarish mumkin.

Bu haqda Abu Rayxon Beruniy "Mineralogiya" asarida "Faqatgina sezgi organlari yordamida o'zlashtirilgan bilimlar xatolarga olib kelishi mumkin. Agar inson sezgilardan fikrlash va xulosa chiqarish yordamida foydalansa, ana shu sezgilar orqali idrok qilinadigan narsalarni o'rganishda juda katta yutuqlarga erishish mumkin",-ded ta'kidlagan.


Shu bois yuqorida qayd etilgan ma'lumotlarni virtual lavhalar ko'rinishida ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu esa axborot texnologiyalarining multimedia va dasturiy vositalari hamda pedagogik texnologiyalarni shaxsga yo'naltirilgan tamoyillari asosida matn ko'rinishida berilayotgan lavhalarning imitatsion modellarini yaratish orqali matnda aks ettirilgan materiallarning mazmun-mohiyatini ochib berishga imkoniyat yaratadi. Imitatsion modellar yordamida lavhalarda aks ettirilgan ma'lumotlarni harakat, animatsiya, ovoz va turfa ko'rinishdagi ranglar orqali ularning mazmun, mohiyatini ochib berish bilan bir qatorda, ularda yashiringan, ko'z ilg'amaydigan ma'lumotlarni ko'rsatish imkoniyati mavjud. Bu esa o'z navbatida imitatsion modellarda aks ettirilgan ma'lumotlar bo'yicha fikr-mulohaza yuritish va xulosa chiqarish imkoniyatini yaratadi. Shu bois har bir ijodiy guruh tarkibiga axborot texnologiyalari sohasidagi tajribali mutaxassislar kiritilishi ham maqsadga muvofiq.

Axborot va pedagogik texnologiyalarning multimedia, dasturiy vositalari asosida qayta ishlangan lavhalar virtual lavhalar deb ataladi.

Oddiy lavhalar bilan bir qatorda virtual lavhalarni hayotga tatbiq etish yaxshi Samara beradi. Shuni ta'kidlash joizki, ayrim holatlarda oddiy lavhalarni ko'rsatish orqali natijaga erishilsa, ayrim holatlarda virtual lavhalarni ko'rsatish yaxshi samara beradi, ayrim holatlarda esa ularni birgalikda namoyish etish foydaliroqdir. U holda tizim quyidagi ko'rinishni oladi (2-rasm).

Misol tariqasida buyuk mutafakkir va allomalarimiz, aziz-avliyolarimiz hayoti va ijodi hamda ilmiy kashfiyotlariga doyr imitatsion modellar yaratishga Abu Rayhon Beruniyning ilmiy kashfiyotlaridan biri, ya'ni suv to'ldirilgan idish ichiga tushirilgan jism o'zining hajmiga teng suyuqlik siqib chiqaradi, deb e'tirof etgan ilmiy kashfiyotining imitatsion modelini yaratish mumkin. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarga imitatsion modellar yordamida alloma Abu Rayxon Beruniyning ilmiy kashfiyoti to'g'risida to'liq tushuncha olishga asos bo'ladi. Xuddi shunday boshqa ulug' allomalarimiz va aziz-avliyolarimiz hayoti, ijodi va ilmiy kashfiyotlarining imitatsion modellarini yaratib, ularni virtual lavhalar ko'rinishida hayotga tatbiq etish mumkin.

Shunga o'xshash mustaqillik yillarida bun- yod etilgan "Shahidlar xiyoboni" da bunyod etilgan muzeyning ham imitatsion modelini yaratish orqali ularni muzeyni tomosha qilish ishtiyoqida bo'lgan insonlarga imitatsion modelini ko'rsatish va u haqida tasavvurga ega bo'lish imkoniyati yaratiladi. Hamma vaqt va har doim "Shahidlar xiyoboni"da bunyod etilgan muzeyni borib ko'rish imkoniyati mavjud emasligi bois, uni imitatsion modeli orqali xohlagan paytda ko'rish imkoniyati yaratiladi.



2-rasm. “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asari asosida yaratilgan tizimli yondashuv texnologiyasi tuzilmasi

Xuddi shunday O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning “Shukur deysan sen qachon” she’riy misralarining imitatsion modellarini yaratish mumkin.

Kiprikdan ham qisqadir

Molu dunyo yo‘llari,

Ibrat bo‘lsin Iskander

Ochiq kvtagan qo‘llari,

Uzat deysan ber deysan,

Hyech qo‘ymading odamzot,

Tuya to‘ydi, fil to‘ydi

Sen to‘ymading odamzot.

Shukr qilar hattoki

Qumursqa - parrandalar.

Shukr deysan sen qachon

Xom sut emgan bandalar.

Bu uch kunlik dunyoda

Savlatiga kerilma.

Qasr qurma bog qoldir,

Davlatiga kerilma

O‘z elingni qaqshatsang,

Xor bo‘lasan o‘zing ham,

Bir kun shu el mehriga

Zor bo‘lasang o‘zing ham.

She'rda ifoda etilgan mazmundan kelib chiqqan holda beshta imitatsion model yaratish va ularni virtual lavha ko‘rinishiga keltirish mumkin. Birinchi va ikkinchi, uchinchi virtual lavhalarda tuya, fil va qumursqaning to‘yganligi ko‘rsatiladi, to‘rtinchi virtual lavhada noshukur odamlar ko‘rsatilsa, beshinchisida o‘z yurtini qaqshatgan vatanfuroshlar haqida virtual lavha ko‘rsatiladi.

Virtual lavhalar yordamida she'rning mazmunida ifoda etilgan fikrlarni yanada tushunalibroq tarzda ko‘rsatish imkoniyati mavjud. Bunday ko‘rinishdagi virtual lavhalarning afzallik tomonlari shundan iboratki, ular yordamida katta yoshdagi insonlarga mo‘ljallangan materiallarni kichik yoshdagi o‘quvchilarga ham ko‘rsatish va tushuntirish imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari mustaqillik yillarida erishilgan qator yutuqlarimizni ham virtual lavhalarini yaratish orqali ko‘rsatish mumkin. Bu ishlar ijodiy jamoa va ijodiy guruhning vazifalariga kiradi.

Har qanday texnologiyaning zamirida uzluksiz va uzviy ravishda bog‘langan jarayon yotishini e‘tiborga olganda, yuqorida bayon qilingan tizim negizida amalga oshiriladigan nazariy va amaliy ishlar ham texnologik jarayonni tashkil qilishiga guvoh bo‘lamiz.

Tizim doirasida olib borilayotgan nazariy va amaliy ishlar ko‘lami dastlabki bo‘g‘inidan boshlab so‘nggi bo‘g‘ingacha uzluksiz jarayonni tashkil qilganligi bois, ushbu jarayonni qamrab olgan ishlar ko‘lami tizimli yondashuv texnologiyasi

aso- sida amalga oshirilayotganligini e'tirof etish mumkin. Shu bois ushbu tizim doirasida olib borilayotgan nazariy va amaliy ishlar ko'lamini tizimli yondashuv texnologiyasi deb atash mumkin.

Tizim doirasida olib borilayotgan nazariy va amaliy ishlar texnologik jarayonni tashkil etib, bu tizim Prezidentimiz Islom Karimov so'zlari bilan aytganda "...O'zligini anglagan, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqur o'zlashtirgan, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqyealigiga ongli qarab mustaqil fikrlash va diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuygusi" shakllantirilayotgan insonlarga yo'naltirilganligidir.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy yuksalish sari tizimli yondashuv texnologiyasi asosida olib borilayotgan nazariy va amaliy ishlar mustaqil fikrlaydigan, vijdoni pok, iymon e'tiqodi uygoq, irodasi baquvvat insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar quyidagi xulosa va takliflarga olib keldi.

1. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida ma'naviy yuksalish sari olib borilayotgan ishlar ko'lami tizimli asosda olib borilishi kerak degan fikrga tayangan holda ushbu loyihada ko'zda tutilgan nazariy va amaliy yumushlarni tizimli yondashuv texnologiyasi asosida tashkil etish maqsadga muvofiqligi ko'rsatildi.

2. Tizimli yondashuv texnologiyasining tuzilmasi, elementlari va unga qo'yilgan talablar nazariy jihatdan ishlab chiqildi.

3. Tizimli yondashuv texnologiyasi asosida bir qator fan yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish maqsadga muvofiqligi tavsiya etildi.

4. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asari negizida tashkil etilgan tizimli yondashuv texnologiyasi asosida buyuk mutafakkir va allomalarimiz, aziz-avliyolarimizning eng buyuk namoyandalari timsolida ma'rifat, ilm-fan, madaniyat kabi sohalarning barchasini o'zida umumlashtirgan xalqimizning ma'naviy olamini aks ettiruvchi ma'lumotlarni mustaqillik yillarida erishilgan muvaffaqiyatlarimiz bilan uyg'unlashtirilgan holdagi materiallar zamirida yoshlar ma'naviy dunyoqarashi shakllanib borishining shakllari va metodlari ko'rsatildi.

5. Tizimli yondashuv texnologiyasi asosida ma'lumotlar bazasi yaratish maqsadga muvofiqligi, uning negizida ijodiy jamoa va ijodiy guruh tashkil qilish hamda ularning tarkibi bo'yicha tavsiyalar berildi.

6. Tizimli yondashuv texnologiyasida ma'naviyat olamiga doyr materiallarni lavhalar ko'rinishida ishlab chiqish, bu lavhalarni axborot texnologiyalari dasturiy vositalari asosida virtual lahalar ko'rinishida yaratish va ularni birgalikda hayotga tatbiq etish tavsiya etildi.

7. Respublikamizda ma'naviy-ma'rifiy sohalarda olib borilgan va borilayotgan ishlar ko'lamini sarhisob qilish, bu borada yaratilgan ishlanmalarni va tayyor materiallarni hamda istiqbolda yaratilishi kutilayotgan ishlanmalarni aniqlash maqsadida "Ma'naviy yuksalishning tizimli yondashuv texnologiyasi" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumanini o'tkazish maqsadga muvofiq.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

Respublikamizda zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashdagi asosiy tamoyillar sifatida ta'limni insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi; ularning asosi sifatida esa milliy va umuminsoniy, madaniy qadriyatlar aniq belgilab olingan. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda: “Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talabalariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz”.³⁴ Shu bilan birga bugungi kunda kadrlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan yaxlit ta'lim jarayoni yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Biz o'z tadqiqotimizning natijasi sifatida shuni aytishimiz mumkinki yuksak ma'naviyatli shaxsni voyaga yetkazish jarayonida ta'lim tizimining barcha bo'g'ini shuningdek jamiyatdagi mavjud ijtimoiy institutlar hamkorlikda o'z ishlarini sidqidildan, milliy merosimiz va milliy qadriyatlarimizga tayangan holda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga yondoshuv asosida olib borsalar jamiyatda yuksak ma'naviyatli shaxsni voyaga yetkazish jarayoni hamisha samarali bo'lishi mumkin. Xulosalarimiz natijasida quyidagi takliflarimizni aytib o'tmoqchimiz:

1. Milliy ma'naviyatimiz, qadriyatlarimiz, ilm-fan sohasidagi ota-bobolarimizdan qolgan merosning qayta tiklanishi, xalqimizning milliy o'zligini anglash jarayonining o'sib borishi natijasida xalqimiz tafakkur tarzida muhim ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Xayotimizda sodir bo'layotgan bu o'zgarishlar odamlar qalbi va ongiga singib, ularda kelajakka ishonch tuyg'usini, ozodlik va erkinlik hissini tarbiyalamoqda. Mustaqillik tufayli tobe'lik va qaramliqdan ozod bo'lgan davlatimiz ichki va tashqi siyosatda hiech kimning aralashuvi, tazyiqi va ko'rsatmalarisiz xalq manfaatlarini ko'zlab ish yuritmoqda. Yurtimiz istiqloligina boy madaniy-ma'naviy merosimizdan, buyuk ajdodlarimiz yaratgan ma'naviyat chashmalaridan bahramand bo'lishimiz uchun keng yo'l ochdi. Mustaqillik

³⁴ Каримов И.А. Асосий вазифамиз ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдири. – Т.: Ўзбекистон, 2010 й. 74-75 бетлар

xalqimizga yurtimizning bebaho yer osti va yer usti boyliklariga chinakamiga egalik qilish, o'z diyorida o'zini erkin his etish, erkin fikrlash, mustaqil tafakkur yuritish imkonini berdi. Milliy mustaqillik tafakkuri mamlakatimizda keng ko'lamli siyosiy-ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda asosiy omil kuch-qudrat bo'lib xizmat qilmoqda.

2.Ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yaxlit tizim sifatida qarash lozim. Mazkur vazifani hal etishga yo'naltirilgan tarbiya jarayoni — ishlab chiqarish jarayoniga o'xshashdir. Uning asosi — kutiladigan natijalar va unga erishish usullari, erishish usullarini modellashtirishni talab etuvchi rejalashtirish, ishlab chiqilgan reja va modellarni amalga oshirish, mazkur doirada amalga oshiriluvchi kishilarning faoliyat va xulq-atvorini boshqarish bilan bog'liqliqdagi pedagogning tarbiyaviy faoliyati.

3.Texnologik yondashuv imkoniyati tarbiya jarayonining o'zida uning ko'p omilliligi — ko'glab omillar ta'siriga uchrashi, natijalarning tezda namoyon bo'lmasligi, tarbiyachi faoliyatining (bevosita yoki bilvosita) yo'naltirilganligi, ko'p bosqichlilik bilan bog'liq ravishda mujassamdir. Ko'p bosqichlilik tarbiyalanuvchining u yoki bu sifat haqida tasavvur darajasidan tushunchaga va keyinroq o'zlashtirilganlariga muvofiq harakat qilish ko'nikmasini shakllantirish hamda to'g'ri xulq-atvor odatlarini shakllantirishga o'tish bilan tavsiflanadi. Xulq-atvor(odatlar)ning ma'lum shakllarini shakllantirish jarayonini bu kabi tasavvur qilishga muvofiq tarzda umuman tarbiyaning ketma-ketligi haqidagi tasavvur shakllanadi: dastlab hulq-atvor qoidalari va me'yorlari haqidagi bilimlar o'zlashtiriladi, keyin o'zini risoladagidek tutish malakalari ishlanadi, nihoyat, tizimli mashq qilish yo'li bilan oqilona hulq-atvor odatlari tarbiyalanadi.

4. Yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning samaradorligiga erishish tarbiyaviy jarayonda natijaviylikni ta'minlanishi uchun quyidagi shartlarning bajarilishi zaruriyatini taqozo etadi:

- yuksak ma'naviy fazilatlarning ahamiyati va zaruriyatining anglab yetilishi;
- tarbiya jarayoni hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonida motivlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

- tarbiyalanuvchilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni egallashga bo'lgan ijobiy motivlarni shakllantirish;
- tarbiyalanuvchilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirish uchun zaruriy va qulay shart-sharoit yaratuvchi ijodiy muhitni yaratish;
- tarbiya jarayonida hamkorlikka asoslanilishi;
- tarbiyalanuvchilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda tizimli va refleksiv yondashuv imkoniyatlarining hisobga olinishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni// "Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" kitobida. -T.: Sharq, 1997. — B. 20-29.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"// "Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" kitobida. - T.: Sharq, 1997. B.31-61.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. — T.: O'zbekiston, 1992. — 71 b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari — T.: O'zbekiston, 1997. — 315 b.
5. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni — xalq, millatni — millat qilishga xizmat etsin. 7-jild. — T.: O'zbekiston, 1999.
6. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T.: Ma'naviyat, 2008. — 176 b.
7. Karimov I.A Asosiy vazifamiz — Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. — T.: O'zbekiston, 2010. -80 b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. — T.:O'zbekiston, 2011.
9. Karimov. I.A.O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoillari. —T.: "O'zbekiston"-1995. 57 bet.
- 10.Karimov I.A. Oila farovonligi - millat faravonligi ./Xavfsizlik va tarqaror taraqqiyot yo'lida. -T.: "O'zbekiston", 1998, B.400.
- 11.Karimov I.A. Istiqlol va madaniyat. - T.: "O'zbekiston", 1994, 5 6.
- 12.Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent, „O'zbekiston", 2010.
- 13.Asqar Mahkam tarjiması. Avesto. T.: “Sharq” NMAKBT 2001 y.

14. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: "O'qituvchi", 1996 yil.
15. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi", 1993 yil.
16. Abu Rayhon Beruniy. Hikmatlar. -T.: "Yosh gvardiya", 1973 yil.
17. Ahmedov B. Amir Temur o'g'itlari. T.: "G'ofur G'ulom" nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001 y.
18. Begmatov A. Ma'naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. - T.: Sharq, 2000. - 94 b.
19. Bozorova M. Qulaylikning noqulay tomonlari. Surxon yoshlari gazetasi. Termiz, 2012 yil, 23 aprel.
20. Vatan va millat, muqaddasdir. -T.: "Ma'naviyat", 2000 yil.
21. Gadoyboev A. Xalq yo'li-haq yo'li. -T.: "Ma'naviyat", 2004 yil.
22. Dehqonov M. R. Mustaqil O'zbekistonda oila ma'naviyatini takomillashtirishning dunyoviy va diniy muammolari. -T.: "O'qituvchi", 2006 yil.
23. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adib, al-mufrad. T.: "O'zbekiston", 1992 yil.
24. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006-448 bet.
25. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. — T.: Fan, 1995. — 87 b.
26. Kenjaboev A. Pedagogik texnologiyalar samaradorligini oshirishning muhim omili. Uslubiy qo'llanma. T. "Navro'z" 2012.
27. Muxsiev A. Oilada milliy tarbiyaning metodik asoslari. — T.: Fan, 2009. - 120 b.
28. Mahalla: o'zini-o'zi boshqarish huquqiy kafolati (qonunchilik va me'yoriy hujjatlar to'plami). -T., 1999 yil.
29. Munavarov A. Oila pedagogikasi. -T.: "O'qituvchi", 1994 yil.
30. Nishonova S. Milliy kadriyatlar va barkamol inson tarbiya-si./Xalq ta'limi.- T, 1999, №3. - B.16-19

31. Norboeva S. Bobur merosida ma'naviy-axloqiy tarbiya. "O'quv-tarbiya ishlari samaradorligini oshirishda ta'lim muassasalarining hamkorligini modernizatsiyalash" ilmiy maqolalar to'plami, T.:2012 yil.
32. Norboeva S. Yuksak ma'anaviyatli yoshlarni shakllantirishning ijtimoiy pedagogik tamoyillari Termiz davlat universiteti professor-o'qituvchilarining ilmiy- tadqiqot ishlariga bag'ishlangan an'anaviy XLIII ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari Termiz, 2012 yil
33. Norboeva S. Ayollari e'zodagi yurt. "Olima ayollar: Kecha va bugun" respublika ilmiy-amaliy konferensiya. Termiz, 2012 yil
34. Oilada barkamol avlod tarbiyasi.-T.: "Fan va texnologiya", 2010 yil.
35. Otavaliyeva U. Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi. -T., 1994 yil.
36. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy kadriyatlar asosida o'kuv-chi shaxsini axloqiy shakllantirish: Pedagogika fanlari doktori. -diss.-T., 2000.-298 b.
37. Otamurodov S. Ma'naviyat va ma'rifat asoslari. — T.: o'qituvchi, 1991.-200 b.
38. Ochilov.M. Muallim — qalb me'mori. — T: O'kituvchi, 2001. -429b.
39. Rizouddin ibn Faxruddin. Oila.-T.: "Mehnat", 1991 yil.
40. Rizouddin ibn Faxruddin. Nasihat.-T.: "Cho'lpon", 1993 yil.
41. To'raeva O. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi.-T.: "O'qituvchi", 1998
42. Usmonov R. Saodatnoma.-T.: "O'qituvchi", 1995 yil.
43. Umarov E. Estetika: (Nafosatshunoslik). — T.: O'zbekiston, 1995. - 246 b.
44. Fitrat A. Oila.-T.: "Sharq", 1999 yil.
45. Sher Abdulla. Axlokshunoslik. — T: "O'AJBNT" markazi, 2003. 256 b
46. Shodmonova Sh. Oilada kichik maktab yoshidaga bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. — diss. — T., 2001. — 142 b.
47. Qurbonboev M. Talabalar ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (jamoalar asosida): Dis. — pedagogika fanlari nomzodi. — Toshkent, 1998.- 155 b.

48. Qodirov B.O. O'zbek xalq pedagogikasining shakllanishi. Toshkent, "Mehnat" 1992 y. 180 bet
49. Qodirov B.O. Xalq pedagogikasi. "Universitet" nashriyoti 2007 y. 258 bet
50. Haydarov M. Dars jarayonida milliy an'analardan foydalanish. O'quv qo'llanma, Toshkent 2009 yil

INTERNETDAN OLINGAN ADABIYOTLAR

51. <http://www.bilimdon.uz>
52. <http://www.ziyonet.uz>
53. <http://www.edu.uz>
54. <http://www.local.uz>
55. <http://www.fikr.uz>
56. <http://www.pedagog.uz>

MUNDARIJA

| | |
|--|-------|
| Kirish..... | 3-13 |
| I BOB. O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni shakllantirishning ilmiy-pedagog asosi . | |
| I.1. Ma'naviyat tushunchasi mazmuni..... | 14-31 |
| I.2. Talaba yoshlar ma'naviyatini shakllantirish omillari..... | 31-46 |
| II BOB. Talaba yoshlarda ma'naviyatni shakllantirishning shakl va usullari. | |
| II.1. Prezidentimizning “yuksak-ma'naviyat engilmas kuch” asari bu yoshlar ma'naviyatini shakllantirishining bosh me'zoni sifatida..... | 47-53 |
| II.2 Yoshlar ma'naviy tarbiyasiga tizimli yondashuv..... | 54-69 |
| Umumiy xulosa va tavsiyalar..... | 70-72 |
| Foydalanilgan adabiyotlar..... | 73-76 |
| Ilovalar | |